

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**Aktam Burxanov
Fozil Soatov**

PUL, KREDIT VA BANKLAR
fanidan amaliy mashg'ulotlar

O'QUV-U SLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT 2014


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**Aktam Burxanov
Fozil Soatov**

PUL, KREDIT VA BANKLAR
fanidan amaliy mashg'ulotlar

O' Q U V - U S L U B I Y Q O' L L A N M A



TOSHKENT 2014

Burxanov A.U., Soatov F.Y. «Pul, kredit va banklar» fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: ToshDTU, 2014. – 128 b.

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy fanlarni, ayniqsa «Pul, kredit va banklar» fanining amaliy jihatlarini chuqur o'rganish talab etiladi. Talabalar ushbu fandan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida mazkur qo'llanma tayyorlandi va unda talabalar mustaqil bajarishlari uchun amaliy topshiriqlar va masalalar hamda ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining «Menejment» va «Marketing» yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq nashr etildi.

Taqrizchilar: **Said-Djalolov D.R.** – ToshDTU Sanoat tarmoqlarini boshqarish fakulteti dekani, i.f.d., prof.
Abrayev N.K. – TMI «Bank ishi» kafedrası dotsenti, i.f.n.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovar-pul munosabatlari – tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayirboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarni ifoda qiladi. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiy monopoliyani inkor qiluvchi, ijtimoiy taraqqiyotga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo'nalishiga ega bo'lgan va boshqarilib boriladigan iqtisodiyotdir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonlari va mamlakatimizni Umumjahon savdo tashkilotlari bilan olib borayotgan aloqalari bevosita amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Chunki, pul-kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotini mablag' bilan ta'minlovchi va iqtisodiy islohotlarning samarasini belgilovchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «... bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, Respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank aktivlari va kredit portfelining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi»¹.

Ushbu natijalarga erishish uchun bevosita «Pul, kredit va banklar» fanini o'rganish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fan orqali talabalar zamonaviy pul, bank nazariyasi va moliyaviy boshqaruv, qimmatli qog'ozlar

¹ K a r i m o v I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: «O'zbekiston», 2013. – B. 12.

bilan operatsiyalar, banklar tomonidan pul muomalasini boshqarishning nazariy asoslarini va amaliy uslublarini o'rganadilar. Bundan tashqari zamonaviy moliya-kredit nazariyasida O'zbekiston respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning yo'llari va usullari ko'rib chiqiladi.

1-Amaliy mashg'ulot. Pul nazariyasi

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga qiymatning pul shaklini paydo bo'lishini, pulning asosiy xususiyatlari va tizimini, zamonaviy pul haqida tushunchani, pulning funksiyalarini, pul muomalasi qonunlarini, pul muomalasi muammosini, kreditning iqtisodiy asoslarini, kreditning asosiy funksiyalari va tashkil qilish asoslarini, bank nazariyasi va moliyaviy boshqaruvni, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, banklar tomonidan pul muomalasini boshqarishning nazariy asoslarini va amaliy uslublari haqida tushuncha va yondashuvlarni o'rgatish. Shuningdek, kredit pullarning zamonaviy shakllari, Veksel, banknota va chek, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari va ularni ba'zi davlatlarning pul tizimidagi o'рни, valuta zonalarining tashkil topishi, pul agregatlari, pul nazariyasidagi yo'nalishlar: metal, nominal va miqdoriy nazariya, shuningdek, Kembridj boshqaruvi, Keyns pul nazariyasi, zamonaviy – monetarizm, Milton Fridman nazariyalarini, zamonaviy moliya-kredit nazariyasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlari bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning yo'llari va usullarini ko'rib chiqish.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Pulning mohiyati va asosiy xususiyatlari.
2. Pul tizimi.
3. Pulning takror ishlab chiqarishdagi o'рни.
4. Pulning funksiyalari.
5. Pul muomalasi qonunlari.
6. Pul agregatlari.
7. Pulning kredit tabiati va uning rivojlanishi.
8. Kredit pullarning zamonaviy shakllari.
9. Veksel, banknota va chek tushunchalari.
10. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari.

11. Valuta zonalarining tashkil topishi.
12. Pul nazariyasidagi asosiy yo'nalishlar (pulning metal nazariyasi, nominal nazariya, miqdoriy nazariya, Kembridj boshqaruvi, Keyns nazariyasi, zamonaviy – monetarizm, Milton Fridman nazariyasi).
13. Kredit tushunchasi, asosiy funksiyalari va tashkil etish asoslari.
14. Bank nazariyasi va ularning iqtisodiyotda tutgan o'рни.
15. Pul muomalasini boshqarish.
16. Zamonaviy moliya-kredit siyosatida qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning yo'llari va usullari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul o'ziga xos tovar sifatida qanday ajralib chiqqan?
2. Pulning mohiyatini tushuntirib bering.
3. Pulning xarid qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
4. Pul tovar qiymatining umumiy ekvivalenti sifatida.
5. Pulning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Kredit tushunchasining iqtisodiy mohiyatini va asosiy funksiyalarini izohlab bering.
8. Zamonaviy bank tizimini tushuntiring va u iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday o'rin tutadi?
9. Pulning funksiyalarini izohlang.
10. Rivojlangan davlatlarda pulning qanday funksiyalari o'rganiladi?
11. Pul aylanmasi deganda nimani tushunasiz?

12. Naqd pul aylanmasi nima va uning o'ziga xos xususiyatlari sanab bering?

13. Naqdsiz pul aylanmasi va uni ishlatish ko'lamini tushuntirib bering.

14. Elektron pul tizimining mazmuni va uning ahamiyati izohlab bering.

15. Pul muomalasi qonuni nima?

16. Pul massasi va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

17. Pul agregatlariga izoh bering.

18. Pul muomalasini barqarorlashtirish yo'llari nimalardan iborat?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Pul tizimining barqarorligi – bu iqtisodiyotni bir tekisda rivojlanishi garovidir. Pul muomalasi esa, bozor iqtisodiyotini muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi. Pul muomalasini o'rganishda bir qancha ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ularga – pulni umumiy massasi; pul bazasi va multipilikatori; zarur bo'lgan pul hajmi; pul oboroti (naqd pul qo'llanadigan va qo'llanmaydigan oborotlar); pul aylanish tezligi ko'rsatkichlari va boshqalar kiradi.

Pulni umumiy massasi (M) pul agregatlari yig'indisidan tashkil topib, pul muomalasini o'rganishda eng muhim iqtisodiy mutlaq ko'rsatkichdir.

Pul bazasiga naqd pul (P_n), bank kassalaridagi mablag'lar, tijorat banklarining Markaziy Bankda saqlaydigan majburiy zaxiralari va ularning Markaziy Bank korschetlaridagi mablag'lari kiradi. Bu ko'rsatkich pul multiplikatorini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bank zaxiralarini muomalada ko'payishi natijasida pul massasining ortishini xarakterlovchi pul multiplikatori quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$P_m = \frac{M_2}{P_b} = \frac{(P_n + D)}{(P_n + TB_{mz})} = \left[\frac{\left(\frac{P_n}{D} + 1 \right)}{\left(\frac{P_n}{D} + \frac{TB_{mz}}{D} \right)} \right]$$

bu yerda,

P_m – pul multiplikatori;

M_2 – pul agregati;

P_b – pul bazasi;

P_n – naqd pul;

D – depozitlar;

TB_{mz} – tijorat banklarining majburiy zaxiralari.

Ushbu formula bo'yicha misollar keltiramiz.

1-misol. Tuman moliya bo'limi to'plagan ma'lumotlar bo'yicha quyidagilar ma'lum: 1) aholining naqd puli - 11,0 mlrd. so'm; 2) banklar kassalaridagi pul qoldig'i - 2,0 mlrd. so'm. 3) depozitlar - 3 mlrd, so'm. 4) majburiy zaxiralar - 9 mlrd. so'm.

Pul multiplikatorini aniqlang.

Yechish:

Pul multiplikatorini yuqorida keltirilgan formula bilan hisoblaymiz:

$$P_m = \frac{11,0 + 2,0 + 3}{11,0 + 2,0 + 9} = \frac{16,0}{22,0} = 0,727 \text{ yoki } 72,7\%$$

Bu ko'rsatkichni o'tgan davrlar bilan taqqoslab xulosa chiqarish mumkin.

Zarur bo'lgan pul birligini aniqlash muhim iqtisodiy holatlardan biridir. Buni bir qancha usullar yordamida bajarish mumkin. Zarur bo'lgan pul birligini hisoblashning eng oddiy formulasi quyidagicha:

$$P = \frac{q \times \bar{p}}{v},$$

bu yerda,

P - zarur bo'lgan pul birligi;

q - sotiladigan tovarlar massasi;

$\bar{p}$ - tovarlarning o'rtacha bahosi;

v - pul birligining aylanish tezligi
(martada).

Yuqorida keltirilgan formulani quyidagi tenglikka keltiramiz:

$$P \times v = q \times \bar{p}$$

Demak, pul birligining aylanish tezligiga ko'paytmasi tovarlar massasini ularning o'rtacha baholariga ko'paytmasiga teng. Agar, bu tenglik buzilsa (masalan, $P \times v > q \times \bar{p}$ bo'lsa), pulning qadsizlanishi kuchaya boshlaydi.

Zarur bo'lgan pul hajmini (birligini) quyidagi formula bilan ham aniqlash mumkin:

$$P_{zh} = \frac{(p_1 q_1 - p q) + (p_0 q_0 - T_{o'q})}{V}$$

bu yerda,

$p_1 q_1$ - joriy davrda ishlab chiqarilgan va
sotiladigan tovarlar qiymati;

$p q$ - joriy davrda ishlab chiqarilgan va kelgusi
yil sotiladigan tovarlar qiymati;

$p_0 q_0$ - o'tgan davrda ishlab chiqarilgan va joriy
davrda sotiladigan tovarlar qiymati;

$T_{o'q}$ - o'zaro qoplanuvchi to'lovlar;

V - pul birligining aylanish tezligi.

Pul massasining kupyuralik tuzilishini o'rganish ikki ko'rsatkichni hisoblash bilan bajariladi. Birinchisi, pul belgilarining muomaladagi umumiy pul massasidagi

hissasini hisoblash, ikkinchisi – o‘rtacha kupyuralilik darajasini aniqlash.

Pul belgilarining o‘rtacha kupyuralilik darajasi asosida pulni kupyura tuzilishi dinamikasi va tendensiyasi o‘rganiladi. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\overline{M} = \frac{\sum Mf}{\sum f}$$

bu yerda,

M - kupyuraning qiymati;

f - kupyuralar soni.

2-misol. Muomalaga chiqarilgan kupyuralar qiymati quyidagi shartli ma’lumotlarda berilgan:

Kupyuralar qiymati	1	3	5	10	25	50	100	200	500
Kupyuralar soni, mlrd.dona	10	15	18	20	30	40	50	30	10

O‘rtacha kupyuralilik darajasini aniqlang.

Yechish:

O‘rtacha kupyuralilik darajasi quyidagiga teng:

$$\overline{M} = \frac{\sum Mf}{\sum f} = \frac{1 \times 10 + 3 \times 15 + 5 \times 18 + 10 \times 20 + 25 \times 30 + 50 \times 40 + 100 \times 50}{10 + 15 + 18 + 20 + 30 + 40 + 50} = \frac{200 \times 30 + 500 \times 10}{30 + 10} = \frac{19095}{223} = 85,63 \text{ so'm}$$

Muomaladagi mavjud pul massasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_m = M_{ch} - M_{qo}$$

bu yerda,

M_{ch} - muomalaga chiqarilgan pul birligi;

M_{qo} - muomaladan qaytarib olingan pul birligi.

Muomaladagi pul massasi yalpi ichki mahsulot miqdori, baho darajasi va pulning aylanish tezligiga bog‘liq. Pul oborotlari soni (P_o) va bir oborotning uzunligi (t) bilan o‘lchanadi.

O'rganilayotgan davrda muomaladagi pulning oborotlari soni quyidagicha hisoblaniladi:

$$P_o = \frac{YIM}{\overline{M}},$$

bu yerda,

YIM - yalpi ichki mahsulot;

$\overline{M}$ - pul massasining o'rtacha qoldig'i.

O'rtacha pul qoldig'i o'rtacha oddiy arifmetik yoki asosan o'rtacha xronologik formulalar bilan hisoblaniladi.

$$\overline{M}_{thr} = \frac{\frac{1}{2}M_1 + M_2 + \dots + \frac{1}{2}M_n}{n-1}$$

Pul massasi bir oborotning uzunligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$t = \frac{\overline{M} \times D}{CM} \quad \frac{\overline{M}}{CM / D} = \frac{\overline{M}}{m},$$

bu yerda,

t - bir oborotni uzunligi;

D - davrdagi kalendar kunlari soni;

m - bir kunlik oborot.

Ko'rib chiqqan bu ikki ko'rsatkich o'zaro bog'liq, ya'ni:

$$D = t \times m, \quad \text{bu yerdan} \quad t = \frac{D}{m}$$

Demak, bu ikki ko'rsatkichdan bittasi aniq bo'lsa boshqasini hisoblash mumkin.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Viloyat bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ma'lum: naqd pul summasi – 200 mlrd.so'm, banklar kassasidagi pul qoldiqlari – 18 mlrd.so'm; tijorat banklarining majburiy zaxiralari – 36 mlrd.so'm; tijorat banklarining Markaziy Bank korschetlaridagi mablag'lari – 40 mlrd.so'm; tijorat banklarining

umumiy zaxiralari – 78 mlrd.so'm; korxona va tashkilotlarning hisob raqamidagi mablag'lar summasi – 310 mlrd.so'm. Pul bazasi summasi va pul multiplikatorini aniqlang.

2-topshiriq. Tumanda joriy yilda ishlab chiqarilgan va sotiladigan: sanoat mahsuloti qiymati – 400 mln.so'm; qishloq xo'jalik mahsuloti qiymati – 810 mln.so'm; qolgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlar mahsuloti qiymati – 89 mln.so'mga teng. O'tgan yil ishlab chiqarilgan mahsulotdan joriy yilda sotilgani, tegishli ravishda – 12; 44; 11 mln.so'm. Joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdan sotilmasdan qolgan qismi, tegishli ravishda – 25; 32; 7. O'zaro qoplanuvchi to'lovlar – 102 mln.so'm. Tuman bo'yicha pul massasi joriy yilda 3,8 marta aylangan.

Tuman uchun zarur bo'lgan pul birligini aniqlang.

3-topshiriq. Muomalaga chiqarilgan kupyura qiymati quyidagicha taqsimlangan:

Kupyuralar qiymati	1	3	5	10	25	50	100	200	500
Kupyuralar soni, mlrd.dona	20	30	36	40	60	80	100	60	10

O'rtacha kupyuralilik darajasini aniqlang.

4-topshiriq. Markaziy bankning muomalaga chiqargan va qaytarib olgan pul belgilari to'g'risida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. dona)

	Kupyura qiymati								
	1	3	5	10	25	50	100	200	500
Muomalaga chiqarilgan	100	80	60	45	40	25	20	18	15
Muomaladan qaytarib olingan	90	70	50	20	15	5	3	1	-

Quyidagilarni aniqlang:

- o'rtacha kupyuralik darajasini: a) muomalaga chiqarilgan pul belgilari uchun; b) muomaladan qaytarib olingan pul belgilari uchun;

- pul massasi miqdorini: a) muomalaga chiqarilgan;
- b) muomaladan qaytarib olingan;
- emissiya natijasida pul massasining o'zgarishini.

5-topshiriq. Yilning birinchi yarim yilida muomaladagi mavjud pul birligi haqida quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mlrd. so'm):

Oy boshiga	1.01.	1.02.	1.03.	1.04.	1.05.	1.06.	1.07.
Mrld. so'm	260	240	360	420	480	540	630

Quyidagilarni aniqlang:

- birinchi, ikkinchi chorak va yarim yil uchun o'rtacha pul qoldig'ini;
- ikkinchi chorakda birinchisiga nisbatan o'rtacha pul qoldig'ini nisbiy va mutlaq o'zgarishini.

6-topshiriq. Hudud bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan, mlrd.so'm.

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Hisobot davri
Yalpi ichki mahsulot	115,8	170,1
Umumiy pul massasi (o'rtacha)	111,0	138,0

Quyidagilarni aniqlang:

- har bir yil uchun pul aylanish tezligini: a) oborotlar sonida, b) kunlarda;
- hisoblangan ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligidan foydalanib to'g'riligini tekshiring;
- hisoblangan ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilin.

7-topshiriq. Yalpi ichki mahsulot va pul massasi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan, mlrd.so'm.

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Joriy davr
Yalpi ichki mahsulot:		
joriy baholarda	27,1	105,7
solishtirma baholarda	25,4	101,5
Muomaladagi pul massasi	5,4	10,5

Quyidagilarni aniqlang:

- pul massasining aylanish tezligini: a) oborotlar sonida; b) kunlarda;
- deflyator-indekslarini;

– yalpi ichki mahsulot (joriy baholarda), pul massasi va uning aylanish tezligi indekslarini;

– hisoblangan indekslarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsating.

8-topshiriq. Ikki chorak uchun hudud bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan, mln.so‘m.

Ko‘rsatkichlar	Choraklar	
	I	IV
1. Yalpi ichki mahsulot		
a) joriy baholarda	320	810
b) solishtirma baholarda	260	567
2. Pul massasi (o‘rtacha kvartallik)		
a) naqd pul	80	220
b) naqd pulsiz operatsiyalar	140	296

Quyidagilarni aniqlang:

– deflyator-indekslarini;

– naqd pul va naqd pulsiz operatsiyalarning umumiy pul massasidagi hissasi;

– pul massasining aylanishi tezligi: a) oborotlar sonida; b) kunlarda;

– yalpi ichki mahsulotni va pul massasining o‘rtacha kvartallik o‘sish sur‘atini;

– hisoblangan ko‘rsatkichlarning o‘sish sur‘atlarni.

9-topshiriq. Viloyat bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan, mln.so‘m.

Ko‘rsatkichlar	Oylar	
	yanvar	iyun
1. Yalpi ichki mahsulot	218	287
2. Pul massasi	103	126
3. Muomaladagi naqd pul va depozitlar	57	81

Quyidagilarni aniqlang:

– naqd pul va depozitlarning umumiy pul massasidagi hissasini;

– umumiy pul massasining aylanish tezligini;

– naqd pul va depozitlar aylanish tezligini;

– naqd pul va depozitlar aylanish tezligi va ularning umumiy pul massasidagi hissasini o'zgarishi hisobidan umumiy pul massasi aylanish tezligining mutlaq qo'shimcha o'sishini.

10-topshiriq. Respublika bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	Choraklar (mlrd.so'm.)			
	I	II	III	IV
1. Yalpi ichki mahsulot				
a) joriy baholarda	232	256	297	342
b) solishtirma baholarda	212	211	252	269
2. Pul massasi,	110	124	135	150
jumladan, naqd pul	40	43	48	52

Quyidagilarni aniqlang:

– har bir chorak va yil uchun alohida deflyator indekslarini;

– umumiy pul massasidagi naqd pul ulushini;

– umumiy pul massasi va naqd pul bo'yicha har bir chorak va yil uchun alohida pul aylanish tezligini (oborotlar sonida va kunlarda);

– umumiy pul massasi va naqd pul uchun hisoblangan aylanish tezligini (oborotlar sonida va kunlarda) o'sish va qo'shimcha o'sish sur'atlarini.

2-Amaliy mashg'ulot. Kredit nazariyasi

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga kreditning paydo bo'lishi, zarurligi va mohiyati; ssuda kapitali va kreditning iqtisodiy asoslari; ssuda kapitalining alohida manbalari va harakat qilish shakllari; kreditning asosiy funksiyalari va tashkil qilish asoslari; kreditning davlat xarajatlarini moliyalashtirish manbasi sifatidagi rolini kuchayishi haqida yondashuvlarni o'rgatish. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonlarida kreditning

ahamiyatini; kreditning ayrim shakllari va turlarini; sudxo'rlik kreditini; tijorat kreditini; bank kreditini; bank kreditini tijorat kreditidan farqi va ularning o'zaro aloqadorligini; Davlat kreditini; iste'mol kreditini; Xalqaro kreditni; ssuda foizining manbai, ssuda foizini o'lchashni belgilovchi omillar va uning darajasini; ssuda foizi turlarini; kredit tizimini; kredit tizimi turlarini; kredit nazariyasining asosiy yo'nalishlarini; kapitalni yaratish nazariyasini; kreditning natural nazariyasi; pul-kredit muomalasini tartibga solish nazariyasini ko'rib chiqish.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Kredit tushunchasining mohiyati va funksiyalari.
2. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati.
3. Ssuda kapitali harakati, uning xususiyatlari, ssuda kapital bozori.
4. Fondlarning aylanishining o'ziga xos xususiyatlari va kredit zarurligining omillari.
5. Kreditlash tamoyillari.
6. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi.
7. Ssuda kapitali jahon bozori haqida tushuncha va uning evolyutsiyasi.
8. Tijorat banklarining foizlari to'g'risida tushuncha.
9. Foiz stavkasi va uning turlari.
10. Foiz stavkalarini hisoblash usullari va metodlari.
11. Bank marjasi va foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillar.
12. Xorijiy davlatlar amaliyotida qo'llaniladigan foizlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kreditning zarurligini belgilovchi qanday omillarni bilasiz?
2. Kredit qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
3. Kredit ta'minotiga nimalar kiradi?
4. Kredit tavakkalchiligi va uni keltirib chiqaruvchi omillarni izohlab bering.
5. Lizing va faktoring kreditining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Kreditlash shartlariga nimalar kiradi?
7. Qayta taqsimlash funksiyasi nima?
8. Muomalaga kredit vositalarini chiqarish deganda nima tushuniladi?
9. Tijorat kreditining asosiy quroli nima?
10. Tijorat banklarining foiz siyosati deganda nimani tushunasiz?
11. Foiz stavkasi qanday o'rnatiladi va qaysi omillarga bog'liq?
12. Foiz darajasi qanday aniqlaniladi?
13. Kreditning bahosi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
14. Oddiy foizlar qanday aniqlanadi?
15. Murakkab foizlar qanday aniqlaniladi?
16. Bank marjasi qanday aniqlanadi va u qaysi omillarga bog'liq?
17. Xorijiy davlatlar foiz siyosatining qanday xususiyatlarini bilasiz?
18. Real foiz stavkasi qanday aniqlanadi va unga qanday omillar ta'sir qiladi?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Kredit – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga,

haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilar mablag'lari yetarli bo'lmagan sharoitda to'lovni kechiktirib, tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kreditning banklar, korxona va tashkilotlar, aksionerlik jamiyatlari, xususiy firmalar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jismoniy shaxslar berishi mumkin. Kredit bir qancha turlarga bo'linadi: muddati bo'yicha: qisqa muddatli (1 yilgacha); o'rta muddatli (1 yildan 3 yilgacha); uzoq muddatli (3 yildan yuo'ori); ta'minlanishi bo'yicha: ta'minlangan va ta'minlanmagan; kreditor turlari bo'yicha: davlatlararo; banklararo; bank; davlat; tijorat; lizing kompaniyasi krediti; sug'urta kompaniyasi krediti; shaxsiy kredit; konsarsional kredit; debitorlar turi bo'yicha: qishloq xo'jaligi; sanoat; kommunal kredit; nomli kredit; foydalanishi bo'yicha: iste'mol; sanoat; oborot mablag'larini yaratish bo'yicha kredit: investitsiya krediti; moliyaviy tanglikni yo'qotish uchun; o'rtacha kredit; mavsumiy kredit; qimmatli qog'ozlar bo'yicha kredit; eksport va import kredit. Bulardan tashqari kreditni yana quyidagi turlari mavjud: ipoteka; forfeyting; imtiyozli; kontokorrent; diskontli (hisobli); lombard; oval; yevrokredit va boshqalar.

Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bank hujjatlarida qarz oluvchining moliyaviy faoliyatiga qarab uni kredit qobiliyati darajasi, kreditni qaytarish imkoni, tegishli va to'liq hujjatlashtirilgan ta'minotni mavjudligi va boshqalarga qarab kredit quyidagi sinflarga

bo'linadi: yaxshi, qoniqarli, substandartli, shubhali, ishonchsiz kreditlar.

Kredit operatsiyalarida sodda va murakkab foizlar keng qo'llaniladi. Sodda foizlarda (dekursiv usul bo'yicha) oshgan qiymat summasi quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$P_q = P_b + P_{in} \quad \text{yoki} \quad P_q = P(1 + P_{in})$$

bu yerda,

P_q - pulni oshgan (oxirgi) qiymati summasi;

P_b - boshlang'ich summa;

n - foiz yozish davrlari soni;

i - foiz stavkasi;

$1 + in$ - boshlang'ich summani ko'paytiruvchi miqdor deyiladi.

1-misol. 10 mln.so'm 4 yilga 15% bilan qarzga berilgan. Qarzni oshgan (qaytarib berish) qiymatini aniqlang.

Yechish:

$$P_q = P_b + P_{in} = 10 + 10 \times 0,15 \times 4 = 16,0 \quad \text{mln.so'm}$$

$$P_q = P(1 + P_{in}) = 10(1 + 10 \times 0,15 \times 4) = 16,0 \quad \text{mln.so'm}$$

Agarda qarz muddati bir yildan kam bo'lsa, oshgan qiymat quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$P_q = P \left(1 + \frac{d}{t} \times i \right)$$

bu yerda,

d - qarz kunlari soni (t - 360 kun).

Oshgan qiymat faqatgina dekursiv usullarda (yuqorida ko'rib chiqilgan) emas, balki rekursiv usullarda ham hisoblanadi.

Rekursiv usul bo'yicha oshgan qiymat sodda foizlarda quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P_q = P \left(\frac{1}{1-d_n} \right) \text{ yoki } P_q = P \left(1 + \sum \frac{1}{1-d_n} \right)$$

2-misol. Firma 270 kunga 80 mln.so'm kredit olish uchun bankka murojat qildi. Bank esa hisob stavkasi (20%) bo'yicha kredit berishga rozi bo'ladi.

Yechish:

Birinchi navbatda hisob stavkasi summasi aniqlanadi:

$$P \times \frac{d}{t} \times i = 80 \frac{270}{360} \times 0,2 = 12 \text{ mln.so'm.}$$

Firma oladigan mablag' summasi: (80-12) 68 mln. so'mga teng.

Yuqorida keltirilgan formula bo'yicha oshgan qiymat summasini aniqlasak:

$$P_q = 68 \frac{1}{1 - \frac{270}{360} \times 0,2} = \frac{68}{1 - 0,75 \times 0,2} = 80 \text{ mln.so'm.}$$

Oshgan qiymat murakkab foizlarda quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_q = P(1+i)^n$$

Oddiy va murakkab foizlarda hisoblangan oshgan qiymatni aniqlashda inflatsiya darajasi hisobga olinadi.

Oshgan qiymatni inflatsiyani hisobga olgan holda aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$P_q = P \left(\frac{1+i}{1+r} \right)^n$$

bu yerda,

r - inflatsiya darajasi.

Inflatsiya natijasida yo'qotilgan mablag'ni o'rnini qoplash maqsadida foiz stavkalari ham indeksasiya qilinadi:

$$i_r = i + r + ir \text{ yoki } i_r = i + r + \frac{d}{t} ir$$

bu yerda,

i_r - inflatsiya darajasiga korrektirovka qilingan foiz stavkasi.

Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanib noma'lum hadlarni aniqlash mumkin, ya'ni diskontlash mumkin. Masalan: P , n va boshqalarni aniqlaylik.

$$P_q = P(1+in) \text{ bu yerdan } P = \frac{P_q}{1+in}$$

$$P_q = P(1+i)^n \text{ bu yerdan } P = \frac{P_q}{(1+i)^n}$$

$$P_q = P(1+in) \text{ bu yerdan } n = \frac{P_q - P}{Pi} \text{ va hokazo.}$$

3-misol. 20 foizli stavka bilan 20 mln.so'mlik kapital ikki baravarga ortishi uchun necha yil kerak bo'ladi?

$$n = \frac{40 - 20}{20 \cdot 0.2} = \frac{20}{4} = 5 \text{ yil}$$

Foiz stavkalari nominal va samarali stavkalarga bo'linadi.

Nominal stavka deganda foizlar bir yilda bir marta kapitallashtirilishi tushuniladi. Lekin foiz stavkalari bir yildan kam muddatda ham kapitallashtirilishi mumkin. U paytda oshgan qiymatni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$P'_q = P \left(1 + \frac{j}{m} \right)^{Nn}$$

bu yerda,

j - nominal foiz stavkasi;

N - butun qarz vaqtida ustama yoziladigan davrlar soni;

n - butun qarz vaqti;

m -ustama yoziladigan davrlar soni.

Nominal stavka bo'yicha m marta foiz yoziladigan daromadni ta'minlaydigan j - yillik stavka i - samarali stavka deyiladi.

Bizga ma'lumki:

$$(1+i)^n = \left(1 + \frac{i}{m}\right)^{nm}, \text{ bu yerdan } i = \left(1 + \frac{i}{m}\right)^n - 1$$

Samarali stavkani aniqlashni oddiy stavkalar uchun ko'rib chiqdik. Xuddi shunday hisob-kitoblar uchyt stavkasi bo'yicha ham bajariladi.

4-misol. 20 ming so'mlik qiymat bilan obligatsiya 5% nominal stavkada 5 yilga chiqarilgan. Stavkalarni kapitallashtirish bir yilda, yarim yilda va har chorakda amalga oshirilsa, shulardan qaysi biri samarali stavka bo'ladi?

Yechish:

Bir yil uchun, hisoblanmasa ham bo'ladi. Chunki u ma'lum, ya'ni 5%. Demak $i_1 = 0,05$ ga.

Yarim yil uchun:

$$i = \left(1 + \frac{i}{m}\right)^m - 1 = \left(1 + \frac{0,05}{2}\right)^2 - 1 = 0,0506 \quad \text{yoki} \quad 5,06\%$$

Chorak uchun:

$$i = \left(1 + \frac{i}{m}\right)^m - 1 = \left(1 + \frac{0,05}{4}\right)^4 - 1 = 0,0509 \quad \text{yoki} \quad 5,09\%$$

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, kredit beruvchi uchun eng samarali stavka 5,09% (choraklik), kredit oluvchi uchun esa - 5,0% (bir yillik). Yana ham tushunarli bo'lishi uchun, oshgan qiymatni hisoblash mumkin.

Bir yil uchun:

$$P'_{q_1} = 20(1 + 0,05)^5 = 20(1,05)^5 = 20 \times 1,2763 = 25,5 \text{ mln.so'm.}$$

$$P'_{q_{1/2}} = 20 \left(1 + \frac{0,05}{2}\right)^{25} = 20(1,025)^{10} = 20 \times 1,280085 = 25,6 \text{ mln.so'm.}$$

$$P'_{q_{1/4}} = 20 \left(1 + \frac{0,05}{4}\right)^{45} = 20(1,0125)^{20} = 20 \times 1,297865 = 25,9 \text{ mln.so'm.}$$

Demak, oldingi chiqarilgan xulosa to'g'ri.

Amaliy faoliyat shunchalik murakkab jarayonki, to'lovlar qiymatini birlashtirish yoki almashtirish zaruriyati tug'iladi. Bu muammoni, tenglamalarni ekvivalentligidan foydalanib yechamiz.

$$\sum_1^m P_k = \sum_1^n P_q$$

bu yerda,

P_k - k to'lovni qandaydir bir paytga bo'lgan hozirgi qiymati;

P_q - to'lovni o'sha paytga bo'lgan hozirgi qiymati.

5-misol. To'lov muddatlari 17-may, 17-iyun va 17-avgust bo'lgan to'lovlarni birlashtirishga qaror qilindi. To'lovlar summasi tegishli ravshda 10, 20 va 30 mln. so'm. To'lovlarni birlashtirish va qoplash vaqti 31 avgust. Foiz stavkasi 10%. To'lovlar summasini birlashtirilgan hajmi aniqlansin.

Yechish:

$$P_{q_1} = P_{q_1} + P_{q_2} + P_{q_3} \text{ yoki } P_1 \left(1 + \frac{m_1}{n} \times i\right) + P_2 \left(1 + \frac{m_2}{n} \times i\right) + \dots + P_n \left(1 + \frac{m_n}{n} \times i\right)$$

$$P_{q_1} = 10 \left(1 + \frac{103}{360} \times 0,1\right) + 20 \left(1 + \frac{73}{360} \times 0,1\right) + 30 \left(1 + \frac{14}{360} \times 0,1\right) = 60,8 \text{ mln. so'm.}$$

Uzoq muddatli kreditlarni qoplash bir qancha usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Shulardan biri – qoplash rejasini tuzishdir. Qoplash rejasini tuzishdan oldin, muddatli to'lovlar summasi aniqlanadi. Ular teng va teng bo'lmagan to'lovlardan tashkil topishi mumkin. Shartnomada qarzni qoplash teng bo'lmagan muddatli to'lovlarda ko'zda tutilgan bo'lsa, muddatli to'lovlar summasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T_m = [D - R(K - 1)] \times i + R$$

Agarda, qarzni teng muddatli to'lovlarda qoplash ko'zda tutilsa, muddatli to'lovlar summasini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$T_m = D \times \frac{i(1+i)^n}{(1+i)^n - 1}$$

bu yerda,

D - umumiy qarz miqdori;

R - yillik badallar;

K - hisoblanadigan yilning tartib raqami.

6-misol. Bank 250 mln.so'm kredit berdi. Foiz stavkasi 20%, kredit muddati 5 yil. Kontrakt sharti bo'yicha asosiy qarz summasi teng to'lovlar bilan qoplanadi, foizlar ustamasi yil oxirida yoziladi. Qoplash rejasi tuzilsin.

Yechish: Asosiy qarz teng to'lovlar bilan qoplanishi ko'zda tutilgan bo'lsa, umumiy qarz summasi yillar soniga bo'linadi, ya'ni:

$$R = \frac{D}{n} = \frac{250}{5} = 50 \text{ mln.so'm.}$$

Endi muddatli to'lovlar summasi aniqlanadi:

$$T_{m_1-0.25} = 250 - 50(1-1) \times 0,2 + 50 = 100 \text{ mln.so'm.}$$

$$T_{m_2-0.5} = 250 - 50(2-1) \times 0,2 + 50 = 90 \text{ mln.so'm.}$$

$$T_{m_3-0.75} = 250 - 50(3-1) \times 0,2 + 50 = 80 \text{ mln.so'm.}$$

$$T_{m_4-1} = 250 - 50(4-1) \times 0,2 + 50 = 70 \text{ mln.so'm.}$$

$$T_{m_5-1.25} = 250 - 50(5-1) \times 0,2 + 50 = 60 \text{ mln.so'm.}$$

Bu hisoblangan ma'lumotlar asosida qoplash rejasini tuzamiz. Qoplash rejasi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topadi.

Kreditni qoplash rejasi, mln.so'm.

Yillar	Yil boshidagi qoldiq	Asosiy qarzni qoplash summasi	Foizlar bo'yicha to'lovlar	Muddatli to'lovlar summasi
1	2	3	4	5(3+4)
1	250	50	50	100
2	200	50	40	90
3	150	50	30	80
4	100	50	20	70
5	50	50	10	60

7-misol. Bank 5 yilga 6% bilan 40 mln.so'mlik kredit berdi. Kontrakt bo'yicha kreditni qoplanishi teng muddatli to'lovlarda (asosiy qarz va foizlarni o'ziga

birlashtiruvchi) amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Foizlar ustamasi yil oxirida yoziladi.

Qoplash rejasini tuzing.

Yechish. Mavjud parametrlarni yozib olsak: $D=40$ mln.so'm; $n=5$ yil; $i=0,06$; $m=1$.

Muddatli to'lovlar summasi (birinchi yil uchun) teng:

$$T_m = 40 \frac{0,06(1+0,06)^5}{(1+0,06)^5 - 1} = \frac{0,06 \times 1,06^5}{1,06^5 - 1} = 9,5 \text{ mln.so'm.}$$

Foiz summasi: $i = 40 \cdot 0,06 = 2,4$ mln.so'm.

Badal miqdori: $R = T_m - i = 9,4960 - 2,4 = 7,1$ mln.so'm.

Muddatli to'lovlar summasi keyingi yillar uchun hisoblanmaydi, chunki u ma'lum ($T_m = 9,4960$). Qolgan hadlar (i va R) keyingi yillar uchun aniqlanadi.

Masalan: $i_2 = 32,904(40 - 7,096) \times 0,06 = 1,9742$ mln.so'm.

$R_2 = 9,4960 - 1,9742 = 7,5218$ mln.so'm.

Kreditni qoplash rejasi, mln.so'm.

Yillar	Yil boshidagi qoldiq	Foiz to'lovlari summasi	Qoplangan qarz summasi	Muddatli to'lovlar
1	2	3	4=5-3	5
1	40.0000	2.4000	7.0960	9.4960
2	32.9040	1.9742	7.5218	9.4960
3	25.2822	1.5229	7.9731	9.4960
4	17.4091	1.0445	8.4515	9.4960
5	8.9576	0.5375	8.9585	9.4960

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Jismoniy shaxs bankdan 36 mln.so'mlik veksel sotib oldi. Bir yildan keyin shu veksel bo'yicha u shaxs 76 mln.so'm (nominal qiymati) qaytarib olishi kerak. Jismoniy shaxs oladigan daromadning foiz stavkasini aniqlang.

2-topshiriq. Tijorat banki 400 mln.so'mlik davlat obligatsiyalarini sotib oldi. qoplash muddati 6 oy. Shu davrdan keyin bank obligatsiyalar bo'yicha 404

mln.so'm qaytarib olishni mo'ljallamoqda. Bank daromadining foiz stavkasi aniqlansin.

3-topshiriq. Ishbilarmon shaxs o'rtog'idan o'z mashinasini garovga qo'yib 8 mln.so'm qarz oldi. Qarzni qaytarib berish sharti 1,2 koeffitsient bilan. Qarzdorning qaytarib beradigan summasi va foiz stavkasi aniqlansin.

4-topshiriq. Jismoniy shaxs bankka 12 mln.so'm pulni 2 yilga 127% sodda stavka bilan joylashtirdi. Mijozning qaytarib oladigan va daromad summalari aniqlansin.

5-topshiriq. 12 foiz (sodda) bilan 27 mln.so'mlik kredit (3 yilga) uchun foiz miqdori va oshgan qiymat summasini aniqlang.

6-topshiriq. Har oyda foiz to'lanishi sharti bilan mijoz 4,3 mln. so'mni omonatga qo'ydi. Bank qo'yilgan omonatga yiliga 24 foizdan to'lashni belgilagan. Har bir oyda mijoz qancha so'm daromad oladi?

7-topshiriq. A firma B firmaga 77 mln.so'm qarz edi. Qarzni to'lash muddatiga 7 kun qolganda ikki firma shartnoma tuzib, qarz muddatini yana bir yarim yilga uzaytirishdi va qarz bo'yicha B firma 15 foiz to'lashni bo'yniga oldi. Qarz muddati tugagandan keyin A firmasi qancha so'm qaytarib oladi?

8-topshiriq. Omonat bankga 20.01.2013 yildan to 26.04.2013 yil muddatga joylashtirilgan. Foiz ustamasini yozish kunlari sonini aniqlang:

- Germaniya amaliyoti bo'yicha;
- Angliya amaliyoti bo'yicha;
- Fransiya amaliyoti bo'yicha.

9-topshiriq. Xalq bankiga mijoz 24 foiz bilan (sodda) 20 iyunda 3 mln.so'mni joylashtirdi. Omonat 30 sentyabr kuni qaytarib olindi. Mijozning qaytarib olgan summasi va daromadi aniqlansin.

10-topshiriq. Bank o'z mijoziga 15 yanvarda 70 mln.so'mlik kredit berdi. Foiz stavkasi – 80%. Kreditni qaytarish muddati 19 mart. Fevral oyi 29 kun. Qaytarilishi kerak bo'lgan oshgan qiymatini turli usullarda hisoblang:

- aniq foizlar bo'yicha aniq kunlar soni bilan;
- oddiy foizlar bo'yicha aniq kunlar soni bilan;
- oddiy foizlar bo'yicha taqribiy kunlar soni bilan.

11-topshiriq. Xalq banki o'z mijozlariga bir yilik muddatli omonatlar bo'yicha quyidagi sharoitda ishlashni taklif qilmoqda: birinchi yarim yilikda foiz stavkasi 40%, keyingi chorakdan boshlab har chorakda foiz stavkasi 4 foizga ortadi. Lekin, foiz faqat boshlang'ich omonat summasiga yoziladi. Shu shartga rozi bo'lib mijoz 900 ming so'mni omonatga qo'ydi. Mijozning qaytarib oladigan summasini aniqlang.

12-topshiriq. Mijoz 230 kunga 15 mln.so'm kredit olish uchun bankka murojaat qildi. Bank uchyot stavkasi bo'yicha (20% bilan) kredit berishga rozi. Mijozning oladigan kredit summasi va kredit muddati tugagandan keyin bankka to'lanadigan summa aniqlansin.

13-topshiriq. Bankdan 15 mln.so'mlik kredit olindi. Kredit muddati 5 yil. Foiz stavkasi - 27%. Murakkab foiz bilan oshgan qiymat summasi aniqlansin.

14-topshiriq. Omonatchi bankka 700 ming so'mni 4 yilga 37% (murakkab) bilan joylashtirdi. Omonatchining qaytarib oladigan summasi hisoblansin.

15-topshiriq. Xizmat ko'rsatish firmasi bankdan 250 mln. so'mlik kredit oldi. Kredit muddati 6 yil. Foiz stavkasi: birinchi yil uchun 11,4%; ikkinchi yil 13%; qolgan yillarda -14,5%. Qarz muddati tugagandan keyin bankka qaytarib beriladigan summa aniqlansin.

16-topshiriq. Bank 20 mln.so'mni 6 oyga kreditga berdi. Kutiladigan oylik inflatsiya darajasi 2,5%, shu operatsiya bo'yicha zaruriy daromadlilik darajasi 9,6%. Oshgan qiymat summasi aniqlansin.

17-topshiriq. Omonatchi 2 yildan keyin 640 ming so'm olishi kerak. Foiz stavkasi 47% belgilangan. Omonatchi qancha so'mni bankka joylashtirgan edi?

18-topshiriq. Nominal qiymati 870 ming so'm bo'lgan veksel qoplash muddatiga 80 kun qolganda 17% hisob stavkasi bo'yicha bankda ro'yxadan o'tdi. Antisipativ usul bilan vekselni diskontlangan miqdorini aniqlang.

19-topshiriq. Tadbirkor firmasiga 20 mln.so'm zarur. Agarda firma 90 kundan keyin 24 mln.so'm qilib qaytarib bersa, kredit berishga rozi. Hisob-kitobda hisob stavkasi qo'llanilgan. Hisob stavkasi darajasi aniqlansin.

20-topshiriq. Sodda va murakkab foizlarni qo'llab, boshlang'ich kapitalingizning 3 marta oshishi uchun qancha vaqt kerak bo'lishini aniqlang (yilik foiz stavkasi - 15%).

21-topshiriq. Sodda va murakkab foizlarni qo'llab, boshlang'ich kapitalingizning 10 marta oshishi uchun necha yil kerak bo'lishni hisoblang (yilik foiz stavkasi - 9,7%).

22-topshiriq. 4 yil davomida mijoz 50 mln. so'mni bankdan oldi. Omonatga 16 foizdan qo'shimcha yozilgan (murakkab foizlarda). Omonatni boshlang'ich summasi qancha bo'lgan?

23-topshiriq. Uch yildan keyin 9 mln.so'm olish uchun, mijoz bankka qancha so'mni joylashtirishi kerak? Agarda foiz stavkasi: 10%, 12%, 15% va 25% bo'lsa.

24-topshiriq. Qoplash muddati 4 yilga teng bo'lgan 14 mln.so'mlik qarz majburiyati egasi shartnoma

imzolanganidan boshlab uni murakkab uchet stavkasi bilan bankda ro'yxatdan o'tkazdi (hisob foiz stavkasi 16%). Qarz majburiyati egasi olgan summasi va bank olgan diskont summasi aniqlansin.

25-topshiriq. Banka qo'yilgan omonat (21 mln.so'm) 4 yilda 28 mln.so'mga yetdi. Foiz yozish murakkab hisob stavkasida amalga oshirilgan. Uchyot stavkasi darajasi aniqlansin.

26-topshiriq. 980 ming so'm depozitga 3 yilga joylashtirildi. Foiz stavkasi (murakkab) 12% qilib belgilangan. Oshgan qiymatni quyidagi variantlarda aniqlang: a) foiz bir yilda yoziladi; b) foiz yarim yilda yoziladi; v) foiz chorakda yoziladi.

27-topshiriq. Nominal stavka (yillik) 36%. Stavkani kapitallashtirish 4 variantda amalga oshiriladi: (yil, yarim yil, chorak va oy). Samarali stavkani aniqlang.

28-topshiriq. Chorak stavka 5,09%, yarim yillik - 5,06%, yillik - 5,0%. Kredit muddati 3 yil. Kredit miqdori 43 mln.so'm. Oshgan qiymatlar aniqlansin. Kredit beruvchi va oluvchi uchun qaysi stavka samarali hisoblanadi?

29-topshiriq. Firma 2,5 yilga 32% (yillik sodda) bilan kredit oladi. Murakkab foiz bilan kapitallashtirilgan paytdagi ekvivalent stavkani aniqlang.

30-topshiriq. Bank korxonaga 5 yilga 60 mln.so'mlik kredit berdi. Shartnomada foiz stavkasi 17% belgilangan va asosiy qarz summasi teng to'lovlar bilan qoplanadi. Qoplash rejasini tuzing.

3-Amaliy mashg'ulot. Moliya va moliya tizimi

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, asosiy bo'g'inlari va funksiyalari; davlatning moliyaviy siyosati; moliyaviy rejalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni

moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat va uning shakllari va usullari haqida tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy ahamiyatini o'rgatish. Shuningdek, davlat budjeti tushunchasi, tizimi va budjet funksiyalari; davlat budjeti daromadlari va xarajatlari; davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi manbalari; budjet xarajatlari tuslanishi; budjetlararo munosabatlar tizimi; soliq tushunchasi, tizimi, uning funksiyalari va alohida turlarining tavsifi (daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz, mulk solig'i); davlat qarzi, uning elementlari va boshqarish tizimi haqida tushunchalar berish va amaliy tasavvurlarini mustahkamlash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.
2. Moliyaning funksiyalari.
3. Moliya siyosatining mohiyati va mazmuni.
4. Moliya siyosatini amalga oshirishda moliya mexanizmining mohiyati va o'rni.
5. Moliya tizimi va uning bo'g'inlarining tasnifi.
6. Moliyani boshqarishning hozirgi zamon tizimi.
7. Moliyaviy boshqaruvda moliyaviy nazoratning modellari, shakllari va usullari.
8. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash.
9. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
10. Budjet tuzilmasi va budjet tizimi.
11. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari.
12. Soliq tushunchasi va uning obyektiv zarurligi.
13. Soliqlarning funksiyalari.
14. Soliqlarning turlari va ularning tavsifi.
15. Soliq elementlari va ularning tasnifi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliya kategoriyasining qanday xususiyatlari mavjud?
2. Moliyaning qanday funksiyalari mavjud?
3. Moliya siyosatining mohiyati nimadan iborat va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Moliya siyosatining asosiy tamoyillariga tavsif bering.
5. Moliya siyosatini olib borishning qanday yo'nalishlari mavjud?
6. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Moliyaviy rejaning qanday turlari mavjud?
8. Moliyaviy bashoratlash deb nimaga aytiladi?
9. Moliyaviy bashoratlash jarayonida qanday usullardan foydalaniladi?
10. Moliyani boshqarish mohiyati nimalardan iborat?
11. O'zbekiston Respublikasi moliyani boshqarish tizimining tarkibi nimalardan iborat?
12. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoriting.
13. Davlat budjeti daromadlarining xususiyatlari nimalardan iborat?
14. Davlat budjeti xarajatlarining xususiyatlari nimalardan iborat?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Moliya – bu davlat, korxona va aholi tasarrufida bo'lgan barcha pul vositalarining yig'indisi hamda ularni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish tizimidir. Moliyaning mohiyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

- moliya biznesning bir qismini tashkil etadi;

– moliya davlatga o‘z vazifalarini bajarishga yordam beradi;

– moliya milliy mahsulotlar harakatini amalga oshirish, shu jumladan uni ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash, iste‘mol qilishga yordam beradi.

Moliya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Taqsimlash funksiyasi. U yalpi ichki mahsulot qiymatini va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan chambarchas bog‘liq. Bunda markazlashgan va markazlashmagan pul resurslar jamg‘armalari shakllanadi va ulardan foydalaniladi. Moliyaning taqsimlash funksiyasi asosiy hisoblanadi, chunki usiz moliyaning nazorat funksiyasi mavjud bo‘lishi mumkin emas. Ko‘p hollarda taqsimlash funksiyaning tarkibida to‘plash funksiyasini alohida ajratib ko‘riladi, chunki davlat moliya resurslarini to‘plab va boshqarib turgan holda yig‘ish va iste‘mol qilish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, xalq xo‘jaligining alohida tarmoqlari va hududlari o‘rtasida optimal nisbatini shakllantirishga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Taqsimlash funksiyaning maqsadi – davlatning faoliyat yuritishining moliyaviy asoslarini yaratish uchun potensial imkoniyatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Taqsimlash funksiyasi milliy daromadning birlamchi va ikkilamchi taqsimlash (qayta taqsimlash) jarayonida amalga oshiriladi. Birlamchi taqsimot natijasida ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining – ishchilarning (ish haqi shaklida), korxonaning (foyda shaklida), davlatning (qo‘shimcha qiymat solig‘i shaklida) – birlamchi (asosiy) foyda hosil bo‘ladi. Birlamchi foydaga aholining shaxsiy tomorqa xo‘jaliklardan, shaxsiy

mehnat faoliyatidan olingan foyda ham kiradi. Barcha birlamchi foyda yig'indilari mamlaktning milliy daromadini shakllantiradi.

Ishlab chiqarish (ikkilamchi) foyda moliyaviy munosabatlar va ijtimoiy ishlab chiqarish (nomoddiy ishlab chiqarish) sohasi tomonidan ko'rsatgan xizmatlarga haq to'lash yordamida amalga oshiradigan milliy daromadni taqsimlash natijasida hosil bo'ladi.

Taqsimlash munosabatlari ikkita foyda shakli: iste'mol qilishning individual jamg'arma va markazlashgan jamiyat ehtiyojlarini moliyalashtirish (boshqaruv organlari, armiya, mudofaa, sud, prokuratura va boshqa organlarni saqlash) uchun jamg'armalarni ko'zda tutadigan iste'mol qilish jamg'armani shakllantirishni ta'minlaydi.

2. Nazorat funksiyasi. U markazlashgan va markazlashmagan davlat pul resurslarni shakllantirish va undan foydalanish ustidan nazorat olib borish uchun muayyan obyektiv imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan.

Ayrim hollarda yuqorida keltirilgan funksiyalardan tashqari rag'batlantiruvchi funksiyasi sifatida ham alohida ajratib ko'rsatiladi. U o'z navbatida ishlab chiqarish omillardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash, mehnat unumdorligini va mahsulot sifatini oshirish uchun yetarli sharoitlarni yaratish maqsadida qiymatga oid nisbatlarni muayyan tarzda boshqarishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu funktsiyaning har qanday tarzda buzilishi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi, narxning asossiz o'sishi va mehnat unumdorligining pasayishiga sabab bo'ladi. Boshqa yondoshuvga ko'ra moliya bevosita rag'batlantiruvchi funktsiyaga ega bo'lmay, balki bilvosita, soliqlar, bojxona imtiyozlari,

kreditlari va h.k. tizimi orqali samarali rivojlanish jarayoniga ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksiga² asosan budget tizimi, tasnifi va uning prinsiplari quyidagicha talqin etilgan. Xususan, budget tizimi barcha darajadagi budgetlar, davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari, budget tizimi budgetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida budget jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi.

Budget tizimi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- budget tizimining yagonaligi;
- budget tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- budget tizimi budgetlarining balanslilik va o'zaro bog'liqligi;
- budget tizimi budgetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- budget tizimi budgetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- budget tizimi budgetlarining mustaqilligi;
- budget tizimi budgetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- budget jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

Budget tasnifi budget tizimi budgetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek, Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat

² O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y.

bo'lib, budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.

Budjet tasnifi:

- budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifini;
- budjet tizimi budjetlari xarajatlarining tasnifini;
- davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Davlat budjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- iqtisodiyot xarajatlari;

- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

– sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

– boshqa xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga³ muvofiq, soliqlar deganda muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to‘lovlar deganda esa, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;

³ O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y.

– transport vositalariga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy toʻlovlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy jamgʻarmalarga majburiy toʻlovlar;
- respublika yoʻl jamgʻarmasiga majburiy toʻlovlar;
- davlat boji;
- bojxona toʻlovlari;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni koʻrsatish huquqi uchun yigʻim.

Shuningdek, Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida toʻlanadigan quyidagi soliqlar qoʻllanilishi mumkin:

- yagona soliq toʻlovi;
- yagona yer soligʻi;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʼiy belgilangan soliq.

1-misol. Quyidagi tayanch koʻrsatkichlar berilgan: Budjetning sarf qilingan qismining miqdori – 550 mln.soʻm; budjet taqchilligi – 55 mln.soʻm; mustahkamlangan daromad miqdori – 220 mln.soʻm.

Budjetning boshqariladigan daromad miqdorini hisoblang.

Yechish: Budjet taqchilligi – bu budjet xarajatlari budjet daromadlaridan oshib ketishidir. Bu davlat iqtisodiyotida inqiroz jarayonlari (ishlab chiqarishning tushishi, ayrim tarmoqlarning faoliyat koʻrsatish samaradorligining pasayishi, oʻz vaqtida tarkibiy oʻzgarishlarni olib borilmaganligi, ayniqsa, davlat sektorining salmogʻi yuqori, xarbiy sohasidagi xarajatlari miqdori yuqori, tabiiy ofatlar tufayli zarralarni qoplash va h.k.) oqibati yuzaga keladi. Budjet taqchilligini yoʻqotish uchun hukumat tomonidan tezkor choralarni qabul qilishni talab qiladi. Ushbu

choralarga quyidagilar kiradi: budget xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish va boshqa charo-tadbirlarga qaratilgan soliq va kredit siyosatida o'zgartirishlarni kiritish.

Budgetning sarf qilingan qismi va budget taqchilligi miqdori aniq bo'lib, budget daromad miqdorini hisoblaymiz:

$$B_d = B_{sq} - B_l = 550 - 55 = 495 \text{ mln.so'm.}$$

Budget daromadi miqdori, o'z navbatida, boshqariladigan va mustahkamlangan qismdan iborat. Demak, budgetning boshqariladigan daromad miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$B_{db} = B_d - B_{md} = 495 - 220 = 275 \text{ mln.so'm.}$$

2-misol. Davlat budgetida inflatsiya natijasida pullarning qadrsizlanishini oldini olishda ijtimoiy maqsadlar uchun $M_i = 350$ mln.so'm miqdordagi mablag'lari yo'naltirilgan. Prognozlarga ko'ra budget yilida inflatsiya darajasi quyidagicha kutiladi: birinchi 7 oy mobaynida har oyda - $i_1 = 2,5\%$, qolgan oylarida - $i_2 = 2,7\%$ ga teng. Inflatsiya natijasida xarajatlarni qoplashga zarur bo'lgan davlat budjeti mablag'larning zaxira miqdorini aniqlang.

Yechish:

Hisoblanadigan muddat bo'yicha inflatsiya indeksi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$I_i = (1 + i_1) \times (1 + i_2) \times \dots \times (1 + i_n),$$

bu yerda,

i_1 - 1-oy uchun inflatsiya darajasi.

Birinchi 7 oy mobaynidagi va keyingi 5 oy mobaynidagi inflatsiya darajasining ko'rsatkichlari doimiy bo'lganligi uchun quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$I_n = (1 + 0,025)^7 \times (1 + 0,027)^5 = 1,19 \times 1,14 = 1,36$$

Shunday qilib, budget mablag'larining zaxira miqdori quyidagiga teng bo'lishi lozim:

$$B_z = M_1 \times I_1 - M_1 = 350 \times 1,36 - 350 = 126,0 \text{ mln.so'm.}$$

3-misol. Faraz qilamizki, soliq to'lovchining bir yillik soliqqa tortiladigan daromadi 20 mln. so'mni, bir yillik soliq miqdori esa 200 ming so'mni tashkil etadi. Soliq to'lovchining daromadi 16 mln. so'm va 20 mln. so'm miqdoriga teng bo'lgan taqdirda o'rtacha soliq stavkasining miqdori qanaqa bo'ladi? Bu soliq progressiv, regressiv yoki proporsional bo'ladimi? Tushuntirib bering.

Yechish: Proporsional soliq solish - soliq solish obyektni oshirishdan qat'iy nazar barqaror stavkasi urnatiladigan soliq solish usulidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari: soliq solish bazasining oshishi bilan soliq miqdori bir xil soliq foiz stavkasi sharoitida proporsional ravishda o'sib boradi. Amalga oshirish uslublari: korxona tomonidan olingan foyda solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i.

Regressiv soliq solish - bu shunday usulki, unda soliq bazasining oshishi bilan soliq solish stavkasi pasayadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari: soliq solish miqdori soliq solinadigan obyektning oshishiga nisbatan teskari proporsional. Qo'llash sohasi: bu usuldan tor doirada foydalaniladi, biroq to'g'ridan-to'g'ri soliq solish hollarda qo'llaniladi.

Progressiv soliq solish - bu shunday soliq solish usulidirki, unda soliq solinadigan obyektning miqdori oshishi bilan soliq stavkasi ham o'sib boradi. Uning o'ziga xos xususiyatlari: diskresion daromad tushunchasi bilan bog'liq, u o'z navbatida soliq

to'lovchining daromad miqdoriga qarab manfaatlarini amalga oshirish chegaralarini real holda aks ettiradi.

Shunday qilib, agar soliq to'lovchi 2 mln. so'm miqdorda soliq to'lasa, soliq solinadigan daromad 20 mln. so'mni, soliq solish stavkasi 10% ($2 \times 100 / 20$) tashkil etadi. Bu proporsional soliq solishga xosdir.

Agar soliq to'lovchining daromadi 16 mln. so'm va 20 mln. so'm miqdoriga teng bo'lgan holatda 2 mln. so'm miqdorida soliq to'lasa, o'rtacha soliq stavkasining miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$S_{or} = \frac{(S_1 + S_2) \times 100}{(D_{u1} + D_{u2})} = \frac{(2 + 2) \times 100}{(16 + 20)} = 11,1\%$$

Bu regressiv soliq solishga xosdir.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Qanday pul munosabatlar moliyaviy munosabatlarga kiradi?

2-topshiriq. Aniq bir korxona darajasida moliyaning bazaviy vazifalarini amalga oshirilishi bo'yicha misol keltiring, ushbu jarayon doirasida boshqaruv subyektlarni aniqlang.

3-topshiriq. Davlat moliyaviy siyosati mohiyati va uning mustaqillik yillarida shakllangan bosqichlarida umumiy va o'ziga xos jihatlarini ochib bering.

4-topshiriq. O'zbekiston moliyaviy strategiyasini tavsiflab bering.

5-topshiriq. Hukumat 5% stavkasi bo'yicha 1 yil muddatga 100 ming doll. qiymatda qarz olgan. Quyidagilarni aniqlang:

- hukumat yil oxirida ushbu qarz bo'yicha qancha miqdorda mablag' to'lashi kerak bo'ladi?

- agar inflatsiyaning yillik o'sish sur'ati 3% teng bo'lsa, to'lanadigan mablag' miqdori nominalga teng bo'ladimi?

– inflatsiya bo'lmagan taqdirda qarzning va foizning miqdorlari qancha bo'ladi?

– agar inflatsiyaning yillik o'sish sur'ati 4% teng bo'lsa, inflatsiyani hisobga olgan holda to'g'rilangan qarzning va foizning miqdorlari qancha bo'ladi?

6-topshiriq. Yalpi ichki mahsulot 2011-yilda qariyb 60,1 trln. so'mga rejalashtirilgan. Davlat budjeti daromadlari esa 13,1 trln. so'mga rejalashtirilgan. Budjetdan tashqari fondlarning umumiy daromadlari 6,2 trln. so'mga rejalashtirilgan (Pensiya jamg'armasi, Bandlik jamg'armasi, Davlat yo'l fondi, Davlat mulki qo'mitasining maxsus hisob raqamidagi mablag'lar).

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida keltirilgan fondlar kesimida iqtisodiyotdagi fiskal yuk va sof soliq yukini hisoblang. Hisoblangan soliq yukining darajasini Laffer egri chizig'i asosida sharhlang.

7-topshiriq. Viloyat budjeti harajatining miqdori 300 mln. so'mga, budjet tanqisligi – 40 mln.so'm, viloyatning o'z mablag'lari esa, 100 mln.so'mga teng. Viloyat budjetining boshqaradigan daromad miqdorini hisoblang.

8-topshiriq. Viloyat budjetining boshqaradigan daromadi 400 mln.so'm, qayd etilgan daromad miqdori 300 mln. so'mga, budjet xarajatning miqdori 800 mln.so'mga teng, Subvensiyaning miqdori tanqislik miqdoridan 30%ni tashkil etadi. Viloyat budjetining tanqislik va subvensiya miqdorini hisoblang.

9-topshiriq. Agar budjet xarajatining miqdori 340 mln.so'm, qayd etilgan xarajalar – 110 mln.so'm, budjet tanqisligi – 40 mln.so'mga teng bo'lsa, viloyat budjetining boshqaradigan daromad miqdorini hisoblang.

10-topshiriq. Budjet xarajatining miqdori 515 mln.so'm, qayd etilgan daromadlar 130 mln. so'm,

boshqaradigan daromadlar 285 mln.so'mga teng. Subvensiyaning miqdori tanqislik miqdoridan 30%ni tashkil etadi. Budjet tanqisligini va subvensiya miqdorini hisoblang.

11-topshiriq. Ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan firma qayta sotish uchun mahsulotni xarid qilgan. Bir chorak davomida firma quyidagilarni amalga oshirgan:

- QSS 10% stavkasi bo'yicha 572 ming so'm miqdorda va QSS 18% stavkasi bo'yicha 1 416 ming so'm miqdorda mahsulot sotib olgan;

- QSS 18% stavkasi bo'yicha 11 800 so'm miqdorda mahsulotlarni transportda yetkazib berish uchun xarajat qilgan;

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum QSS 10% stavkasi bo'yicha 704 ming so'm miqdorda va QSS 18% stavkasi bo'yicha 1 758,2 ming so'mni tashkil etgan;

Firma chorak uchun budjetga qancha QSS miqdorini to'lash lozimligini aniqlang.

12-topshiriq. O'tkirlik darajasi 40%ga teng 0,5 l sig'imga ega 500 ta shisha spirtli ichimlikni sotishda to'lanadigan aksiz miqdorini aniqlang.

13-topshiriq. QSS va aksizni hisobga olgan holda 0,75 l sig'imga ega shishadagi uzumdan tayyorlangan vinoni sotish narxi 7 500 so'mni tashkil etgan. Bir shisha vinoning xarid narxini aniqlang.

4-Amaliy mashg'ulot. Korxonalar moliyasi

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga korxona moliyasini tashkil qilish asoslari; moliyaviy hisobot – xo'jalik subyektlari to'g'risida ma'lumot olishning asosiy manbai sifatida; moliyaviy hisobotning asosiy xususiyatlari; korxona buxgalteriya balansining tuzilishi va tarkibi; asosiy vositalar va xarajalar;

korxona majburiyatlari, debitor va kreditor qarzdorligi; korxonalarning moliyaviy barqarorligi; korxona va tashkilotlar foydasidan olinadigan soliqlar (mahalliy soliqlar va yig'img'lar); foyda va zararlar to'g'risida hisobot (kapital harakati bilan bog'liq hisobot, pul mablag'lari harakati hisoboti); korxona moliyaviy hisoboti tahlili; hisobot modellari va tuzilishi haqidagi tushunchalar bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy jihatdan mustahkamlash.

Amaliy mashg'ulot rejas:

1. Korxonalar moliyasining mohiyati.
2. Korxonalar moliyasining tashkil etishning tamoyillari.
3. Korxonaning moliya resurslari.
4. Korxona asosiy faoliyatining tahlili.
5. Korxonaning moliyaviy natijalarining tahlili.
6. Korxonalarda moliya ishlarini tashkil etishning xususiyatlari.
7. Korxonaning moliyaviy isloh qilish va uning samaradorligini baholash.
8. Korxonalarning moliyaviy resurslari va kapitali.
9. Korxonalarning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi.
10. Korxonalarning xarajatlari.
11. Korxona foydasi, uni shakllantirish va foydalanish.
12. Korxona rentabelligi va uni oshirish yo'llari.
13. Korxonalarning moliyaviy barqarorligi: baholash ko'rsatkichlari va oshirish yo'llari.
14. Korxona majburiyatlari.
15. Korxonaning debitor va kreditor qarzdorligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonalar moliyasining mohiyatini tushuntirib bering.

2. Korxonalar moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?

3. Korxonalar moliyasini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?

4. Korxonalar moliyaviy resurslari tarkibi nimalardan iborat?

5. Korxonalarni moliyaviy ta'minlashning qanday shakllari mavjud?

6. Korxonalar buxgalteriya balansining aktiv qismini tarkibi nimalardan iborat?

7. Korxonalar buxgalteriya balansining passiv qismini tarkibi nimalardan iborat?

8. Korxonaning mahsulot sotishdan kelgan pul mablag'lari qanday taqsimlanadi?

9. Korxonada moliyaviy menejmentning mohiyatini izohlab bering.

10. Korxona xo'jalik faolligi koeffitsienti qanday aniqlanadi?

11. Korxona aktivlar rentabelligi qanday aniqlanadi?

12. Moliyaviy leverij nima va u qanday aniqlanadi?

13. Korxona to'lovga qobillik koeffitsienti aniqlash tartibi qanday?

14. Moliyaviy tahlil jarayonida rentabellikning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?

15. Korxonaning moliyaviy barqarorligi nimalar bilan xarakterlanadi?

16. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Korxonalar moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va u yalpi ijtimoiy mahsulot hamda milliy daromadni yaratilishi, taqsimlanishi va sarflanishi bilan bog'liq jaryonlarni o'z ichiga oladi. Korxonalar moliyasi yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning asosiy qismi yaratiladigan moddiy sohada faoliyat ko'rsatadi.

Korxonalar moliyasi o'z mohiyatiga ko'ra korxonaning tadbirkorlik faoliyati natijasida xususiy kapital, maqsadli markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi, ularni taqsimlanishi hamda sarflanishi bilan bog'liq moliyaviy yoki pul munosabatlaridan iboratdir.

Korxonalar moliyasining iqtisodiy mohiyatiga asosan barcha moliyaviy munosabatlarning yo'nalishlarini quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1) Korxonalarni tashkil etishda xususiy kapitalni va ustav kapitalini shakllantirishdagi ta'sischi o'rtasidagi munosabatlar. Ustav kapitalini shakllantirishning aniq usullari korxona faoliyat ko'rsatishining tashkiliy-huquqiy shakliga bevosita bog'liqdir;

2) Mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan alohida korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar. Ushbu moliyaviy munosabatlarga xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar yetkazib beruvchi ta'minotchi hamda sotib oluvchi korxonalar o'rtasidagi, investitsiya faoliyatini olib borishdagi quruvchi tashkilotlar o'rtasidagi, yuklarni yetkazib berish bilan bog'liq transport tashkilotlari o'rtasidagi, aloqa va bojxona muassasalari o'rtasidagi munosabatlarni kiritish mumkin;

3) Korxonalar va uning tashkiliy bo'g'inlari o'rtasidagi xarajatlarni moliyalashtirish, foydani va aylanma mablag'larni sarflanishi bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va uning bir maromda faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta'sir etadi;

4) Korxonalar va uning ishchilari o'rtasidagi ish haqini to'lash, soliqlarni to'lash, foydani taqsimlash va sarflanishi, aksiyadorlik jamiyatida aksiyalarni chiqarish va ularni joylashtirilishi, aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash, jarimalarni to'lash bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar ularda mavjud mehnat resurslaridan samaradorlik bilan foydalanishga ta'sir ko'rsatadi;

5) Korxonalar va yuqori tashkilotlar, moliya-sanoat birlashmalari, xoldinglar, uyushmalar va assosiasiyalar o'rtasidagi munosabatlar. Ushbu munosablar korxonalar o'zlari a'zo hisoblangan yuqori tashkilotlar o'rtasidagi markazlashgan maqsadli pul fondlarini va zaxiralarni shakllantirishi, taqsimlanishi va ularni sarflanishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini tarmoq bo'yicha marketing tadqiqotini o'tkazish, investitsiya faoliyatini olib borishda qaytarib berish sharti asosidagi moliyaviy yordam ko'rsatish, aylanma mablag'larini to'ldirish bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi;

6) Tijorat tashkilotlari va korxonalar o'rtasidagi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni joylashtirish, o'zaro kreditlashtirish, qo'shma korxonalarni tashkil etishda muassis sifatida ishtiroq etish bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar korxonalarni o'z faoliyatini moliyalashtirishdagi qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish bilan bog'liq faoliyatga bevosita bog'liqdir;

7) Korxonalar va davlat moliya tizimi o'rtasidagi budjetga soliqlar va yig'imlarni to'lash, budjetdan

tashqari fondlarga to'lovlar o'tkazish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, moliyaviy jazo choralarini qo'llash hamda budjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq munosabatlar;

8) Korxonalar va tijorat banklari o'rtasidagi banklarda pul mablag'larini saqlash, kreditlar olish va ularni to'lab berish, bank kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lash, xorijiy valutalarni sotish va sotib olish, turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar;

9) Korxonalar va sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi mol-mulkni, xodimlarini ayrim toifalarini, tijorat va tadbirkorlik qaltisliklarini (risklarni) sug'urta qilish bilan bog'liq munosabatlar;

10) Korxonalar va investitsiya institutlari o'rtasidagi qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish, investitsiyalarni joylashtirish, xususiylashtirish bilan bog'liq munosabatlar.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda rentabellik va likvidlilik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ushbu ko'rsatkichlarning tavsifini keltirib o'tamiz.

Rentabellik koeffitsientlari korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini foydalilik (zararlilik) darajasini ko'rsatadi. Amaliyotda quyidagi rentabellik koeffitsientlaridan keng foydalaniladi:

1) Sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabellik ko'rsatkichi. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R_{sf} = \left(\frac{F_s}{K_{o'}} \right) \times 100$$

bu yerda,

R_{sf} – sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabelligi;

F_s – sof foyda;

K_o – o'z kapitali.

2) Rentabellikni tarkib toptiruvchilarni tahlil qilish uchun amaliyotda birinchi marta «Dyupon de Nemur» kompaniyasida qo'llanilgan Dyupon formulasidan foydalaniladi. Uning ko'rinishi quyidagicha:

$$R_{\text{y}} = \left(\frac{F_s}{K_o} \right) \times \left(\frac{F_s}{T_s} \right) \times \left(\frac{T_s}{A} \right) \times \left(\frac{A}{K_o} \right)$$

bu yerda,

R_{y} – sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabelligi;

F_s – sof foyda;

K_o – o'z kapitali;

T_s – sof tushum;

A – aktivlar.

3) *Aktivlar rentabelligi koeffitsienti* korxona raqobatbardoshligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u korxona aktivining har bir pul birligidan olingan foyda miqdorini ko'rsatadi, ya'ni

$$R_a = \left(\frac{F_a}{A} \right)$$

bu yerda,

R_a – aktivlar rentabelligi koeffitsienti;

F_a – soliq to'langunga qadar foyda;

A – aktivlar.

Aktivlar rentabelligi aktivlar aylanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, korxonaning aktivlarga qo'yilgan har bir so'm miqdoridan olingan foydasi aktivlar aylanishining tezligi, aktivlarning o'rtacha qiymati va sotish hajmidagi tushumdan sof foyda ulushiga bog'liq. Aktivlar aylanishining sekinlashishiga obyektiv (inflatsiya, xo'jalik yuritish aloqalaridagi uzilishlar) va subyektiv (sotib oluvchilar bilan hisob-kitob qilish va tovar-moddiy boyliklar zaxirasini oqilona boshqara olmaslik, shuningdek ular bo'yicha tartibli hisobotning yo'qligi)

sabablar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4) *O'z mablag'lar rentabelligi koeffitsienti.* Bu ko'rsatkich mulkdorlar tomonidan korxonaga qo'yilgan har bir so'mdan olingan foyda miqdorini ko'rsatadi, ya'ni

$$R_{o'm} = \left(\frac{F_{st}}{M_{o'}} \right)$$

bu yerda,

$R_{o'm}$ - o'z mablag'lar rentabelligi koeffitsienti;

$M_{o'}$ - o'z mablag'lari.

Ma'lumki, korxona aktivlari rentabelligiga o'z mablag'lari, sof aktivlar va sotish rentabelligining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

5) *Sotish rentabelligi koeffitsienti.* Bu ko'rsatkich sotishdan sof tushumning har bir so'midan olingan foyda miqdorini ifodalaydi, ya'ni

$$R_s = \left(\frac{F_{st}}{T_s} \right)$$

bu yerda,

R_s - sotish rentabelligi;

T_s - sof tushum.

Sotish rentabelligi ko'rsatkichi korxona narx siyosatining imkoniyatlarini belgilab beradi. Agar bu ko'rsatkich juda past bo'lsa, korxona o'z mahsulotlari narxini arzonlashtira olmaydi, chunki korxona bunday sharoitda zarar bilan ishlay boshlaydi.

6) *Sof aktivlar rentabelligi koeffitsienti.* Bu ko'rsatkich foydani qayta investitsiya qilish hisobidan xususiy sarmoyaning chegarasini, o'sish sur'atlarini belgilab beradi va sof aktivning har bir so'midan olingan foyda miqdorini ifodalaydi, ya'ni

$$R_{sa} = \left(\frac{F_{st}}{A_s} \right)$$

bu yerda,

k_m – sof aktivlar rentabelligi koeffitsienti;

A_i – sof aktivlar.

Endi amaliyotda keng qo'llaniladigan likvidlilik koeffitsientlariga batafsil to'xtalamiz. Likvidlilik – bu to'lov qobiliyatining zarur va majburiy sharti hisoblanadi. «To'lov qobiliyati» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u nafaqat aktivlarni tez sotiladigan aktivlarga aylantirish imkoniyatini, balki o'zining pul operatsiyalaridan kelib chiquvchi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Korxonaning to'lovga qobiliyatlik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$k_{iq} = \left(\frac{\sum PM_i}{M_{mk}} \right) \geq 1$$

bu yerda,

k_{iq} – to'lovga qobilik koeffitsienti;

$\sum PM_i$ – korxonaning jami pul mablag'lari;

M_{mk} – to'lov muddati kelgan majburiyatlar.

Koeffitsientning darajasi birga teng yoki undan katta bo'lmog'i lozim. Ana shu shart bajarilsa, korxona to'lovga qobil hisoblanadi.

1-misol. Kompaniya quyidagi ko'rsatkichlar bilan yilni yakunladi:

- sof foyda – 25 ming so'm;
- o'z kapitali – 310 ming so'm;
- sof tushum – 154 ming so'm;
- aktivlar – 254 ming so'm;
- soliq to'langunga qadar foyda – 32,5 ming so'm;
- o'z mablag'lar – 124 ming so'm;
- sof aktivlar – 145 ming so'm;
- korxonaning jami pul mablag'lari – 90 ming so'm;
- to'lov muddati kelgan majburiyatlar – 70 ming so'm.

Kompaniyaning sof foyda bo'yicha rentabellik, aktivlar rentabelligi, o'z mablag'lar rentabelligi, sotish rentabelligi, sof aktivlar rentabelligi, korxonaning to'lovga qobiliyatlik koeffitsientini aniqlang?

Yechish:

1) Sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabelligi:

$$R_{sf} = \left(\frac{F_s}{K_o} \right) \cdot 100 = \left(\frac{25}{310} \right) \cdot 100 = 8,1\%$$

2) Aktivlar rentabellik koeffitsienti:

$$R_a = \left(\frac{F_{st}}{A} \right) = \left(\frac{32,5}{254} \right) = 0,13$$

3) O'z mablag'lar rentabelligi koeffitsienti:

$$R_{o'm} = \left(\frac{F_{st}}{M_{o'}} \right) = \left(\frac{32,5}{124} \right) = 0,26$$

4) Sotish rentabelligi koeffitsienti:

$$R_s = \left(\frac{F_{st}}{T_s} \right) = \left(\frac{32,5}{154} \right) = 0,21$$

5) Sof aktivlar rentabelligi koeffitsienti:

$$R_{sa} = \left(\frac{F_{st}}{A_s} \right) = \left(\frac{32,5}{145} \right) = 0,22$$

6) Korxonaning to'lovga qobiliyatlik koeffitsienti:

$$k_{iq} = \left(\frac{\sum PM_t}{M_{mi}} \right) \geq 1 = \left(\frac{90}{70} \right) = 1,29 \geq 1.$$

Likvidlilikning quyidagi turlari amaliyotda keng qo'llaniladi.

1) Joriy likvidlilik koeffitsienti k_{ji} , korxonaning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun aylanma mablag'lar va pul resurslari bilan qanday darajada ta'minlanganligi, muddatli to'lov majburiyatlari bo'yicha o'z vaqtida majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini ifodalaydi, ya'ni

$$k_{ji} = \frac{A_t}{M_t}$$

bu yerda,

A_j – korxonaning joriy aktivlari;

M_j – korxonaning joriy majburiyatlari.

Likvidlilikni tahlil qilish korxonalar faoliyatida uchraydigan muammolarni mavjud ekanligini va ularni tez fursatda yechish zarurligini ko'rsatib beradi.

$k_{ji} \geq 2$ yoki 200% va undan ko'p bo'lishi kerak, agar $k_{ji} > 2$ bo'lsa, korxona daromadi qoniqarsiz ekanligidan dalolat beradi.

Agarda k_{ji} haddan tashqari yuqori bo'lsa, korxonada moddiy aylanma mablag'lar, debitorlik qarzlari talabdan tashqari ko'payib ketgan. Bu aylanma mablag'lar aylanishini susaytiradi, korxonaning moliyaviy holati yomonlashadi.

Agar k_{ji} pasayib boraversa risk kuchayib, korxonada joriy majburiyatlardan qutulish imkoniyati kamayib boradi.

2) Umumiy likvidlilik koeffitsienti - k_{ul} , korxona o'zining butun aktivlarda foydalanib majburiyatlarni, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni qaytarib berishga qodirligini ifodalaydi, ya'ni

$$k_{ul} = \frac{A_k}{M_k}$$

bu yerda,

A_k – korxona aktivlari;

M_k – korxona majburiyatlari.

$k_{ul} \geq 2$ yoki 200% va undan ko'p bo'lishi kerak, aks holda korxona daromadi qoniqarsiz ekanligidan dalolat beradi.

3) Mutlaq likvidlilik koeffitsienti - k_{ml} , bu ko'rsatkich eng likvidli aktivlar hisobidan joriy majburiyatlarni imkoniyatini ko'rsatadi, ya'ni

$$k_{ml} = \frac{P_m}{M_j}$$

bu yerda,

P_m – korxona pul mablag'lari.

Qisqa muddatli korxona majburiyatlarini korxonaning naqd pul mablag'lari bilan qoplash darajasini ifodalaydi.

$k_{ml} \geq 0.2$ yoki 20% va undan katta bo'lishi kerak, $k_{ml} < 0.01$ bo'lsa, korxona qarzlarini qaytarib berishga qodir emas (bankrot), agar $0.01 < k_{ml} < 0.1$ bo'lsa korxona qarzlarini qaytarib berishga biroz qodir.

4) Tezkor likvidlilik koeffitsienti - K_{ml} , bu ko'rsatkich likvidli va tez sotiladigan aktivlar hisobidan joriy majburiyatlarni bajarish imkoniyatini ko'rsatadi, ya'ni

$$k_{il} = \frac{P_m + Q_d}{M_j}$$

bu yerda,

Q_d – korxonaning debitor qarzlar.

$k_{il} \geq 1$ (yoki 100%dan katta) bo'lishi kerak. $k_{il} < 1$ korxonaning joriy majburiyatlarini to'lash imkoniyati pasayib ketganligidan dalolat beradi.

k_{il} ning yuqori bo'lishi hamma vaqt ham korxonaning yuqori likvidliligini ifodalamaydi, chunki bu vaziyat debitorlik qarzlar hisobidan bo'lishi mumkin.

2-misol. Kompaniya quyidagi ko'rsatkichlar bilan yilni yakunladi:

- korxona aktivlari – 685 ming so'm;
- joriy aktivlar – 520 ming so'm;
- korxona majburiyatlari – 420 ming so'm;
- joriy majburiyatlar – 364 ming so'm;
- pul mablag'lari – 485 ming so'm;
- debitorlik qarzlar – 186 ming so'm.

Kompaniyaning joriy, umumiy, mutlaq va tezkor likvidlilik koeffitsientlarini aniqlang?

Yechish:

1) Joriy likvidlilik: $k_{jl} = \frac{A_j}{M_j} = \frac{520}{364} = 1,43;$

2) Umumiy likvidlilik: $k_{ul} = \frac{A_k}{M_k} = \frac{685}{420} = 1,63;$

3) Mutlaq likvidlilik: $k_{ml} = \frac{P_m}{M_j} = \frac{485}{364} = 1,33;$

4) Tezkor likvidlilik: $k_{tl} = \frac{P_m + Q_d}{M_j} = \frac{485 + 186}{364} = 1,84.$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Korxona mahsulotni sotishdan 316,7 ming so'm miqdorda tushum oldi. Sotilgan mahsulotning to'liq tannarxi – 195,5 ming so'mga teng. Qo'shimcha qiymat solig'i stavkasi 20%, aksiz solig'i yo'q. Korxona qilgan xarajatlar, olingan foyda, rentabellikni aniqlang.

2-topshiriq. Korxona 10 ming dona tovarni 12 ming so'mdan sotgan. Ushbu mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari 80 mln. so'mni tashkil etgan. Korxona olgan tushum, foyda, rentabellikni aniqlang.

3-topshiriq. Korxona 13 ta buyumni ishlab chiqarish uchun jami 2 080 ming so'm, 18 ta buyumni ishlab chiqarish uchun esa 2 630 ming so'm miqdorda umumiy xarajat qilgan. Korxona mana shu buyumni ishlab chiqarishga qancha xarajat qilganini aniqlang.

4-topshiriq. Korxonaning umumiy daromadi 800 mln. so'm, ishchilarga ish haqi to'lovlari 300 mln. so'm, xomashyo va materiallarga ketgan xarajatlar 350 mln. so'm, boshqa xarajatlar 50 mln. so'mni tashkil etgan.

Korxonaning buxgalteriya va iqtisodiy foydasini hisoblang.

5-topshiriq. Quyida sanab o'tilgan xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lib chiqing.

1 – asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi; 2 – ma'muriy-boshqaruv organlarning ish haqi; 3 – direktorning avtomashinaga amortizasiya ajratmalari; 4 – ishlab chiqarish sexiga amortizasiya ajratmalari; 5 – ijara to'lovlari; 6 – zavod oshxonasini saqlash uchun xarajatlar; 7 – xonalarni yoritishga ketgan xarajatlar; 8 – transport-tayyorlovga oid xarajatlar; 9 – reklamaga sarflangan xarajatlar; 10 – qadoqlashga ketgan xarajatlar.

6-topshiriq. Tadbirkor korxonani ishga tushirish munosabati bilan banket zalini ijaraga olib, 500 kishini mehmonga taklif qilgan. Tadbirkorning xarajatlari quyidagicha taqisimlandi: oziq-ovqatga 15 mln.so'm, ijara va xizmat haqi 6 mln. so'm, boshqa xarajatlar 3 mln.so'm. Bir ozdan keyin tadbirkor yana 10 kishini taklif qilishga qaror qildi. Bu holatda tadbirkorning xarajatlari qanchaga ko'payadi? Ulardan qaysilari doimiy, qaysilari o'zgaruvchan xarajalar hisoblanadi?

7-topshiriq. Korxona qisqa muddat ichida 300 dona tovarni ishlab chiqib, o'rtacha har bitta tovar hisobiga 8 ming so'm doimiy xarajat qilgan. Agar o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlari 30 ming so'mdan 20 ming so'mgacha qisqarsa umumiy xarajatlari qay tarzda o'zgaradi?

8-topshiriq. Agar quyidagilar ma'lum bo'lsa balans daromadini va sotilgan mahsulotning rentabellik darajasini aniqlang:

– mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 1 700 ming so'm (shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i – 10%);

- sotilgan mahsulotning tannarxi – 993 ming so'm;
- amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromad – 50 ming so'm;
- amalga oshirilgan operatsiyalarga sarf qilingan xarajatlar – 74 ming so'm;
- moddiy boylikni realizatsiya qilishdan olingan foyda – 10 ming so'm.

9-topshiriq. Ikkita korxonaning faoliyat natijalarini solishtirib ko'ring.

Korxona	Avans, mln.so'm	Mahsulotni sotish, tonna	Mahsulot tannarxi, so'm/kg	Mahsulot narxi, so'm
№ 1	15	150	150	170
№ 2	12	120	145	170

10-topshiriq. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini baholang.

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hajmi, ming so'm.	300	350
Asosiy ishlab chiqarish fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	50	60
Aylanma vositalarning o'rtacha qoldig'i, ming so'm	40	50
Amortizasiya, ming so'm	10	15
Ishchilarning soni, odam	20	22
Mahsulotni sotishdan tushgan tushum, ming so'm	30	40

Quyidagilarni aniqlang:

- mehnat unumdorligini;
- aylanma vositalardan foydalanish ko'rsatkichlarini;
- mahsulot tannarxini va sotilgan mahsulot qiymatida uning salmog'ini;
- mahsulot va ishlab chiqarishning rentabelligini.

Hisobot yilida bazis yilga qaraganda ro'y bergan o'zgarishlarni tavsiflab bering.

5-Amaliy mashg'ulot. Banklar va bank operatsiyalari

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga banklarning tashkil topishi va mohiyatini; bank tizimi tushunchasi va bank turlari, uning elementlari va bog'liqligini; iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida bank islohotlari va zamonaviy bank tizimining shakllanishini; tijorat banklari tizimi va ularning faoliyatini; Markaziy bank va uning faoliyatini; tijorat banklarining boshqaruv-tashkiliy tuzilishi, funksiyalari va operatsiyalarini (passiv va aktiv operatsiyalar); bank faoliyatidagi risklarni boshqarishni o'rganish.

Shuningdek, markaziy bankning pul-kredit siyosatidagi asosiy instrumentlari; bank faoliyatini litsenziyalash; banklarning investitsiya sohasidagi faoliyati; investitsiyalarni moliyalashtirishni manbalarini tarkibi va ularni optimallashtirish; kapital mablag'larni kreditlashtirishda banklar ishini tashkil etish tamoyillari; investitsiya portfelini tashkil etish va uni boshqarish haqida ko'nikmalarga ega bo'lish.

Amaliy mashg'ulot rejası:

1. Banklarning mohiyati va asosiy funksiyalari.
2. Bank tizimi va uning operatsiyalari.
3. Markaziy bank, uning vazifalari va funksiyalari.
4. Banklarning kelib chiqishi va uning mohiyati.
5. O'zbekistonda zamonaviy bank tizimining tashkil qilinishi.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari.
7. Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.
8. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi, funksiyalari va passiv operatsiyalari.
9. Depozitlar va ularning salmog'ini kengaytirish.

10. Tijorat banklarining aktiv va xalqaro operatsiyalari.

11. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bankning mohiyatini tushuntirib bering.

2. Majburiy zaxira nima?

3. Bank faoliyatini tashkil qilishning asoslari nimalardan iborat?

4. Tijorat banklarining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?

5. Dastlabki litsenziya tijorat banklarida qanday shartlar asosida beriladi?

6. Asosiy litsenziya tijorat banklarida qanday tadbirlar o'tkazilgandan keyin beriladi?

7. Tijorat banklarining boshqaruv tizimida nechta organ faoliyat yuritadi?

8. Tijorat banklarining funksiyalari nimalardan iborat?

9. Yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'larini bank hisob-varaqlariga, jamg'armalarga jalb qilish deganda nimani tushunasiz va u qanday operatsiyalarga kiradi?

10. Depozitlar nima va ular hajmini qanday kengaytirish yo'llarini bilasiz?

11. Qanday operatsiyalar passiv operatsiyalar deyiladi?

12. Passiv operatsiyalarning shakllari qanday va ularga misol keltiring.

13. Bank aktiv operatsiyalarining mazmuni va bank faoliyatidagi ahamiyati nimalardan iborat?

14. Aktiv operatsiyalarning qanday turlari mavjud va ularga ta'rif bering.

15. Qanday operatsiyalar bankning boshqa aktiv operatsiyalari tarkibiga kiritiladi?

16. Banklarning vositachilik operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?

17. Banklarning ishonch operatsiyalari nima va ularning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytiladi.

Bank so'zi italyancha «banca» so'zidan olingan bo'lib «stol», aniqrog'i «pullik stol» degan ma'noni anglatadi.

Banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Banklar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;

– kredit munosabatlarida vositachilik qilish;

– to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;

– muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Banklar ma'lum belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

– mulk shakliga qarab: aksioner, noaksioner, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklar;

– kredit beruvchi banklar.

Milliy mavqeyi bo'yicha: milliy va xorijiy banklarga bo'linadi.

Faoliyat ko'rsatishi va bajaradigan funksiyalariga ko'ra: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo'linadi.

O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, banklar tizimining birinchi pog'onasi – bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog'onasi – tijorat banklari, ularning sho'balari, chet el banklari sho'balari hisoblanadi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxira miqdorini belgilab beradi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich milliy valutada 15% va xorijiy valutada 8%ni tashkil qiladi. U pul muomalasini barqarorlashtirish va banklar likvidligini ta'minlashda ahamiyatga ega.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv hisobidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta mavqyega ega. Tijorat banklarining passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qilinadi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining, asosan, to'rtta shakli mavjud:

- tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
- bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
- boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirish.

Amaliyotda asosan bank passivlarining 20 foizi banklarning xususiy mablag'lariga to'g'ri keladi.

Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib, kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta'minlangan kreditlarga beriladi.

Xalqaro Bazel standartida tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab 8% qilib belgilangan. Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, ushbu minimal talab 15% darajasida bo'lishi lozim. Bazel-III standartiga ko'ra, tijorat banklari kapitalining himoyaviy «konservatsiya buferi» joriy etiladi va u birinchi darajali kapitalning 2,5% hajmida tashkil etiladigan qo'shimcha zaxiradan iborat bo'ladi. Natijada, birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan umumiy talab darajasi yetti foizni tashkil etadi (2,5% + 4,5%).

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab 10% qilib belgilangan. Xalqaro hisob-kitoblar banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari kapitali yetarliligining minimal darajasi 10%ni tashkil etishi lozim. Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga nisbatan minimal talablar o'rnatish borasida ham turli xil yondashuvlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrda PQ-726-sonli «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi respublikamiz banklari kapitallashuv darajasini oshirish yo'lidagi muhim

qadam bo'ldi. Mazkur qarorga muvofiq, 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab, yangi tashkil etilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam tijorat banklari uchun so'm ekvivalentida 5 mln.yevro miqdorida, xususiy banklar uchun – so'm ekvivalentida 2,5 mln.yevro miqdorida belgilandi.

Respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishning muhim me'yoriy-huquqiy asoslaridan yana biri – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil iyul oyidagi PQ-670-sonli «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hisoblanadi. Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ustav kapitali miqdorini oshirish, ularning kapitaliga aholi, tadbirkorlik subyektlari va ehtimol tutilgan investorlar, shu jumladan, xorijiy investorlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorlarida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish dolzarb masala ekanligi e'tirof etildi. Bundan tashqari, tijorat banklariga o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilishi hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash vazifalari yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari

to'g'risida»gi qarorida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida ajratiladigan kreditlar hajmini 2011-2015-yillarda 2,8 martaga oshirish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonuniga (52-modda) muvofiq Respublika markaziy banki qolgan banklar uchun normativlar o'rnatish huquqiga ega. Markaziy bank quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha normativlar o'rnatgan: kapitalni adekvatlilik (barobarligi) koeffitsienti; xavf-xatarni yuqori darajasi; likvidlilik koeffitsienti; ssuda bo'yicha foizlar belgilash va boshqalar.

Bu nopmativlapni qo'llanilishi respublika banklarini barqarorligini ta'minlanishi va ularni oldi olinishi mumkin bo'lgan yoki asossiz xavf-xatarlardan saqlab qolishdir. Asosiy xavf-xatarlardan biri kredit xataridir. Normativ bo'yicha katta kreditlar summasi bank kapitalidan uch martadan ko'p bo'lmasligi kerak, **kapitalning yetarliligi koeffitsienti** (bank kapitalini xavf-xatar aktivlariga nisbati) 8 foizdan oshmasligi ko'zda tutilgan, **tezkor likvidlilik koeffitsienti** minimal darajasi 0,25; **joriy likvidlilik** – 0,3; **qisqa muddatli likvidlilik ko'rsatkichni** maksimal darajasi – 1,0 va boshqalar; bitta qarzdorga yoki ular guruhiga xavf-xatar darajasini maksimal darajasi birinchi darajali bank kapitali darajasidan 15 foizdan yuqori bo'lmasligi kerak, bank kreditlarini maksimal xavf-xatari darajasi bank kapitalidan 5 foizdan yuqori bo'lmasligi kerak; kreditlarini umumiy summasi bank kapitalidan 8 martadan yuqori bo'lmasligi kerak; **umumiy bank kapitalining yetarlilik koeffitsienti** (xavf-xatarga asoslangan kapitalni umumiy summasini bank aktivlari umumiy summasiga nisbati). Bu

koeffisientni bo'lishi mumkin bo'lgan minimal qiymati 0,1 (10%) teng; **birinchi darajadagi kapitalning yetarlilik koeffitsienti** (oddiy aksiyalar; kommulyatsiyativ – imtiyozli aksiyalar, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda qiymatini umumiy aktivlariga nisbati). Bu yerda minimal qiymat 0,05 (5 foiz). Umumiy kapitalda birinchi darajali kapital miqdori 50 foizdan oshmasligi kerak.

Leverij koeffitsienti. Bu ko'rsatkich birinchi darajali kapitalni aktivlarni umumiy summasiga nisbati bilan hisoblanadi. Buni bajarishdan oldin umumiy aktivlar summasidan nomoddiy aktivlar va Gudvill summasi chiqariladi. Gudvill summasi bankni sotib olishda uni sof aktivlari qiymatidan ortiqcha to'langan summa.

Normativlarni hisoblashda bir qancha ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularga:

1. Banklarni xususiy kapitali. U o'z ichiga to'langan ustav fondi, bank zaxiralari va taqsimlangan foydani oladi.

2. Normativlarni hisoblashda qo'llaniladigan xususiy kapital summasini olishdan oldin, u summadan tugallanmagan kapital, qurilishga qo'yilgan mablag'lar va qoplash muddati 30 kundan ortiqcha kechikadigan kreditlar chiqariladi.

3. Likvid aktivlar. Ular tijorat banklarning Markaziy bankda saqlanadigan zaxiralari; sotib olingan davlat obligatsiyalari qiymati; boshqa banklar schetidagi mablag'lar; qoplash vaqti hali to'lmasdan berilgan kredit summalar (1 yilgacha muddatda).

4. Banklar iqtisodiy oprasiyalarni bajarish uchun ma'lum bir xavf-xatarga boradilar. Shuning uchun ham bank kapitali xavf-xatarni hisobga olgan holda aniqlaniladi. U bank aktivlari bilan mumkin bo'lgan

darajada qoʻldan chiqarilgan mablagʻ oʻrtasidagi farqqa tengdir.

Endi moliyaviy barqarorlikni baholovchi bank normativlarini koʻrib chiqamiz.

1. Kuka koeffisienti (H_1) yoki kapitalni yetarliligini normativi – bank xususiy kapitalini xavf-xatar bilan bogʻlangan aktivlar summasiga nisbati. Meʼyor – 5%dan yuqori.

2. Joriy likvidlilik normativi (N_2) – likvidli aktivlarni hisob boʻyicha talab qilinadigan bank majburiyatlariga nisbati. Meʼyor – 20% ortiq.

3. Tezkor likvidlilik (N_3) – yuqori likvidli aktivlarni bank majburiyatlariga (talab qilinadigan) nisbati. Meʼyor – 20%dan ortiq.

4. Uzoq muddatli kreditlarni xavf-xatar normativi (N_4) – uzoq muddatli kreditlarni xususiy kapital va uzoq muddatli depozitlarga nisbati. Meʼyor – 120% past.

5. Likvid aktivlar va netto-aktivlari nisbati (N_5). Meʼyor -10 % ortiq.

6. Bir qarzdorga boʻlgan xavf-xatar normativi (N_6) – qarzdorga berilgan kredit va kafolatni bank xususiy kapitaliga nisbati. Meʼyor –60% oshmasligi kerak.

7. Yirik kreditlar xatari normativi (N_7) – yirik kredit va barcha kafolatlarni 50% summasini bank xususiy kapitaliga nisbati. Meʼyor –12 martadan yuqori boʻlmasa.

8. Bankni bir kreditori xavf-xatar normativi (N_8) – bir kreditor qoʻyilmasini bank xususiy kapitaliga nisbati. Meʼyor – 60% dan past.

9. Bank aksionerlariga kredit normativi (N_9) – bir aksionerga berilgan kredit summasini bank xususiy kapitaliga nisbati. Meʼyor – 60 % dan ortiq emas.

10. Insayderlarni (bankni boshqarish bilan bogʻliq boʻlgan jismoniy shaxslar) qarzdorlik normativi (N_{10}) – bitta insayderga berilgan kredit, kafolat va kafillik

summasini bank xususiy kapitaliga nisbati. Me'yor – 10%dan past.

11. Aholi qo'yilmalari normativi (N_{11}) – qo'yilmalarning xususiy kapitalga nisbati. Me'yor – 100%dan oshmasligi kerak.

12. Bank qatnashuvi normativi (N_{12}) – bir yuridik shaxsning sotib olgan aksiyalari qiymatini bank xususiy kapitaliga nisbati. Me'yor – 45%dan oshmasligi kerak.

Bu normativlar jahon moliya bozorida ko'pchilik amaliyotchi-olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va ishlatib kelinayotgan ko'rsatkichlardir.

Yuqorida keltirilgan va boshqa ko'rsatkichlar hisoblanilib, tahlil qilingandan keyin, olingan natijalar asosida bankni banklar o'rtasida tutgan o'rni (reytingi) aniqlaniladi.

1-misol. Mamlakatda yil oxirida pul massasining hajmi 202 mlrd.so'mni tashkil etgan. Markaziy bank yil boshida 3 mlrd.so'm miqdorida emissiya qildi va majburiy zaxiralarning me'yorini 10% qilib o'rnatdi. Mamlakatning pul massasi hajmining miqdori qanchaga teng bo'ladi?

Yechish. Emissiya tijorat banklarni kreditlash yo'li bilan amalga oshirilayotganligini inobatga olib, chiqarilgan 3 mlrd.so'm miqdordagi mablag'ni tijorat banklar hisob raqamlarida joylashtirilgan. Ammo naqdsiz pullar multiplikativ kengayish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli tijorat banklarning pul bozorida hosil bo'lgan umumiy pul mablag'lar miqdori:

$$M_p = E \times \frac{1}{Z_m} = 3 \times \frac{1}{0,10} = 30 \text{ mlrd.so'mni tashkil etadi.}$$

Shunday qilib, pul massasi 30 mlrd.so'mga oshadi va 232 mlrd.so'mni tashkil etadi (202+30).

2-misol. Markaziy bank yuqori inflatsiya (yillik 20%) darajasi sharoitida ochiq bozor siyosati yordamida pul

massasini muomala qilishni kamaytirishga harakat qilgan. Pul massasi 200 mlrd.doll.ni, minimal zaxiralar me'yori esa 20%ni tashkil etgan holatda bank inflatsiya darajasini 10%ga tushirish uchun qanday choralarni amalga oshirishi lozim?

Yechish:

Agar inflatsiya darajasi ikki barobarga qisqarishini hisobga olsak, boshqa o'xshash sharoitlarda pul massasi ham ikki barobarga kamayadi. Demak, markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarni 100 mlrd.doll. miqdorda sotish lozim edi, ammo multiplikator samarasini hisobga olgan holda bu miqdor 5 martaga kamayadi, ya'ni 20 mlrd.doll.ni tashkil etadi.

3-misol. Agar mamlakatda pul massasi tanqisligi 500 trln.so'm, majburiy zaxiralarning me'yori esa 20% atrofida kuzatilayotgan bo'lsa, Markaziy bankning qayd etish stavkasi qay tarzda o'zgaradi?

Yechish:

Markaziy bank kredit ekspansiyasini amalga oshirish, ya'ni tijorat banklarga tijorat veksellarni qayta hisob yuritish uchun qulay sharoitlarni yaratishga to'g'ri keladi. Buni qayd etish stavkasini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirish lozim.

4-misol. Bank 6% yillik stavkasi bo'yicha uch oyga, 7% yillik stavkasi bo'yicha olti oyga, 8% yillik stavkasi bo'yicha bir yilga omonatlarni olgan. Omonat miqdori 150 ming so'mni tashkil etgan. Quyidagi muddatlar uchun omonatning miqdorini (unga hisoblangan foiz bilan birga) aniqlash talab qilinadi: uch oy, olti oy, bir yil.

Yechish:

Bu misolni yechish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$Q = O_m(1 + n \times i)$$

bu yerda,

O_m – omonatning miqdori;

n – muddati (yillar hisobida);

i – omonat bo'yicha foizlar.

$Q = 150 \times \left(1 + \frac{3}{12} \times 0,06\right) = 152,3$ ming so'm – uch oy uchun to'lanadigan miqdor.

$Q = 150 \times \left(1 + \frac{6}{12} \times 0,07\right) = 155,3$ ming so'm – olti oy uchun to'lanadigan miqdor.

$Q = 150 \times (1 + 1 \times 0,08) = 1620$ ming so'm – bir yil uchun to'lanadigan miqdor.

5-misol. Omonatchi 100 kundan keyin 305 ming so'mni olish uchun bankka 300 ming so'mni qo'ymoqchi. Omonat bo'yicha oddiy foiz stavkasini aniqlash talab qilinadi.

Yechish.

Bu misolni yechish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$S_o = \left[\frac{(O_{im} - O_m)}{O_m \times i} \right] \times k$$

bu yerda,

O_{im} – omonatning talab qilinadigan miqdori;

O_m – omonatning miqdori;

i – omonatning muddati;

k – bir yilda kunlar soni.

$S_o = \left[\frac{(O_{im} - O_m)}{O_m \times i} \right] \times k = \left[\frac{(305 - 300)}{300 \times 100} \right] \times 365 = 0,06$ – ya'ni oddiy yillik foiz stavkasi 6%ga teng.

6-misol. Bank 02.07.2013-yilda banklararo omonat shaklida 7 kun muddatga 24,9% stavkasi bo'yicha 80 ming so'm miqdorida pul mablag'ni olgan. Keltirilgan omonat bo'yicha bank tomonidan qaytaradigan miqdorini aniqlang.

Yechish:

Bu misolni yechish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$O_{im} = O_m \left[\frac{1 + (i \times t)}{k} \right]$$

bu yerda,

O_{im} - omonatning talab qilinadigan miqdori;

O_m - omonatning miqdori;

i - foiz stavkasi;

t - omonat foizini hisoblash muddati;

k - bir yilda kunlar soni.

1) Omonatning to'liq muddati (n) 8 kun (2.07.2013-9.07.2013-yy.)ga teng.

2) Omonat foizini hisoblash muddati (t) esa 7 kunga teng ($n-1$).

Demak, bank keltirilgan omonat bo'yicha quyidagi miqdordagi mablag'ni qaytarishi lozim:

$$O_{im} = O_m \left[\frac{1 + (i \times t)}{k} \right] = 80 \times \left[\frac{1 + (0,249 \times 7)}{365} \right] = 80,4 \text{ ming so'm}$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Faraz qilaylik, tijorat bankda qo'yilmalarning umumiy miqdori 100 ming so'mni, umumiy zahira miqdori 37 ming so'mni, majburiy zaxiralar me'yori 10%ni tashkil etadi. Mazkur bank va butun bank tizimi qancha miqdorda ssuda berishi mumkin?

2-topshiriq. Agar majburiy zaxiralar me'yori 0,10 ga, ichki zaxiralar me'yori 0,15 ga teng bo'lsa va omonat hajmi naqd pul hajmidan 2 barobar ko'p bo'lsa, pul massasini 4 mlrd.so'mga ko'paytirganda pul taklifi qay tarzda o'zgaradi?

3-topshiriq. Bank «qimmat pullar» siyosatini olib boryapti. Agar majburiy zaxira me'yori 20%ga teng, bozorda esa davlat qimmatli qog'ozlarining narxi 40 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa pul massasi qay tarzda o'zgaradi?

4-topshiriq. Markaziy bank «arzon pullar» siyosatini olib borib, pul taklifini 10 mlrd.so'm miqdoriga tushirishni qaror qildi. Ma'lumki, 1 mlrd.so'm miqdordagi obligatsiya aholi tomonidan naqd pul evaziga, qolgan qismi esa – tijorat bank hisob varaqlarda saqlanadigan mablag'lar evaziga sotib olinadi. Majburiy zaxira me'yori 20%ni tashkil etadi. Markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun qancha mablag' sarflashi mumkin?

5-topshiriq. Vekselning nominal qiymati 2 ming so'mga teng bo'lgan sharoitda qayd etish stavkasini 2 barobar -16%dan 8%gacha oshirilsa, vekselning narxi (markaziy bank veksel bo'yicha qayd etadigan narxi) qay tarzda o'zgaradi? Markaziy bank bu holatda qanday siyosatni olib boradi?

6-topshiriq. Agar majburiy zaxira me'yori 5%ga va veksel bozoridagi sotish hajmi 600 trln.so'mga teng bo'lganda markaziy bank foizning qayd etish stavkasini 5%ga kamaytiradigan bo'lsa, iqtisodiyotda pul massasi qay tarzda o'zgaradi? Markaziy bank bu holatda qanday siyosatni olib boradi?

7-topshiriq. Markaziy bank balansining qaysi moddalari eng katta salmog'iga ega? Bu holat nima bilan izohlanadi?

8-topshiriq. Pul massasi 3 mlrd.so'mga oshirilganda markaziy bankning balansi qay tarzda o'zgaradi? O'z balansini tiklash uchun markaziy bank qanday choralarni amalga oshirishi lozim?

9-topshiriq. Bank 7% yillik stavkasi bo'yicha olti oyga, 9% yillik stavkasi bo'yicha sakkiz oyga, 10% yillik stavkasi bo'yicha bir yilga omonatlarni olgan. Omonat miqdori 200 ming so'mni tashkil etgan. Quyidagi muddatlar uchun omonatning miqdorini (unga hisoblangan foiz bilan birga) aniqlash talab qilinadi: olti oy, sakkiz, bir yil.

10-topshiriq. Omonatchi 200 kundan keyin 520 ming so'mni olish uchun bankka 500 ming so'mni qo'ymoqchi. Omonat bo'yicha oddiy foiz stavkasini aniqlash talab qilinadi.

11-topshiriq. Bank sarmoyadorga 8 oy muddatga yillik foiz stavkasi 20% teng bo'lgan holda oddiy foizlar sxemasi bo'yicha hisoblanadigan yoki shu muddatga murakkab foizlar sxemasi bo'yicha har oyda 2% miqdorda hisoblanadigan omonatga qo'yishni taklif qilgan. Sarmoyador uchun mablag'ni qo'yishning qaysi varianti samarali hisoblanadi.

12-topshiriq. Jismoniy shaxs bankdan oddiy foizlar sxemasi bo'yicha yillik foiz stavkasi 80%ga teng bo'lgan 6 oy muddatga 3 mln.so'm qaytarish sharti bilan kredit olgan. Shartnoma tuzish paytida jismoniy shaxs qancha miqdorda kredit olgan?

13-topshiriq. Majburiy zaxiralar normativi 0,25 ga teng. Depozitlarning miqdori naqd pullar miqdoridan ikki barobar ko'p. Pul multiplikatorini aniqlang.

14-topshiriq. Pul multiplikatorning miqdori 2,6 ga, majburiy zaxiralar normativi 0,2 ga teng. Agar pul multiplikatori 3 gacha ko'paygan bo'lsa, naqd pul hamda depozitlar miqdori qay tarzda o'zgaradi?

6-Amaliy mashg'ulot. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va shakllari

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Qimmatli qog'ozlarning umumiy tushunchasi, xususiyatlari va turlari; aksiyaning mohiyati va o'ziga xos xususiyati (oddiy va imtiyozli aksiyalar); dividendlar va dividend siyosati; obligatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari (davlat va korxonalar obligatsiyalari); veksel, uning mohiyati va xususiyati, turlari; depozit sertifikatlar, ularning mohiyati va xususiyatlari; xazina majburiyatlari: mohiyati va xususiyatlari; qimmatli qog'ozlar kotirovkasi haqida tushuncha; hosilaviy qimmatli qog'ozlar to'g'risida umumiy tushuncha va ularning turlari; opsiya shartnomalari haqida tushuncha va ularning turlari; Фьючерс shartnomalari haqida tushuncha, Фьючерсning o'ziga xos xususiyatlari; Aksiyadorlik jamiyatlari: tashkil etishning zarurligi, mohiyati va turlari; qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida tushuncha, turlari; fond birjasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, ularning hozirgi zamon tashkiliy asoslari.

Amaliy mashg'ulot rejası:

1. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va tasnifi.
2. Qimmatli qog'ozlarning hosilalari va ularning turlari.
3. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va uning tarkibiy tuzilmasi.
4. Fond birjasi – bozor iqtisodiyotining eng muhim instituti sifatida.
5. Listing va delisting jarayonlari hamda ularga qo'yiladigan talablar
6. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va ularning mohiyati.
7. «Toshkent» RFB va uning bo'linmalarining funksiyalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qimmatli qog'ozlarning qanday turlari mavjud?
2. Qimmatli qog'ozlarning xususiyatlarini gapirib bering.
3. Qimmatli qog'ozlar hosilalarining mohiyati nima?
4. Qimmatli qog'ozlar hosilalarining turlarini yoriting.
5. Opsionning mohiyati nimalardan iborat?
6. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati yoritib bering.
7. Qimmatli qog'ozlar bozorining vazifalari nimalardan iborat?
8. Fond birjasining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Fond birjasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Qimmatli qog'ozlar listingi deganda nimani tushunasiz?
11. Aksiya nima va uning qanday turlari mavjud?
12. Qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiyalashning bank faoliyatiga ta'siri qanday?
13. Qimmatli qog'ozlar foiz darajasi qanday belgilanadi?
14. Qimmatli qog'ozlar qanday tavsiflanadi?
15. REPO operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
16. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini misollar asosida tasniflang.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 27-iyundagi qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, «Qimmatli qog'ozlar – bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy

huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarning boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir».⁴ Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi qimmatli qog'ozlar amal qilishi ko'zda tutilgan:

1. Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

2. Obligatsiya – obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

3. G'azna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar.

4. Depozit sertifikat – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning

⁴ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni. -T.: «O'zbekiston», 2008. –B. 5.

istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

5. Veksel – veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselida nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

6. Qimmatli qog'ozlarning hosilalari – o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

Qimmatli qog'ozlar – blankalar, sertifikatlar shaklida yoki schyotlardagi yozuv shaklida bo'lishi va hisob-kitobni amalga oshirishda, shuningdek kreditlar bo'yicha garov sifatida foydalanishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi.

Kiritilgan ulush shaklidan qat'iy nazar, qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy pul birligi «so'm»da, ularni chiqarish shartlarida nazarda tutilgan hollarda esa – chet el valutasida (aksiyalar bo'yicha – mulkni o'tkazib berish yo'li bilan ham) ifodalanadi va to'lanadi.

1-misol. Faraz qilaylik, 0,5 ming so'm dividend olindi, bu yerda aksiyaning joriy bahosi – 38,1 ming so'm, sotish bahosi – 32,6 ming so'm va sotib olish bahosi – 26,6 ming so'mni tashkil etdi. Aksiyadan olingan daromad ko'rsatkichlarini aniqlang?

Yechish:

1. Aksiyadan olingan joriy daromad.

$$D_i = \left(\frac{d}{B_i} \right) * 100\% = \left(\frac{0,5}{38,1} \right) * 100\% = 1,3\%$$

2. Aksiyadan olingan umumiy daromad.

$$D_a = \left(\frac{(B_i - B_{so} + d)}{B_{so}} \right) * 100\% = \left(\frac{(32,6 - 26,6 + 0,5)}{26,6} \right) * 100\% = 24,4\%$$

2-misol. «Expert Info» kompaniyasi aksiyasining bozor qiymati – 2,7 ming so'm, nominal qiymati esa – 450 so'mni tashkil qiladi. Kompaniya aksiyasi kursini aniqlang?

Yechish: $A_k = \left(\frac{B_q}{N_q} \right) * 100 = \left(\frac{2,7}{0,45} \right) * 100 = 600 \text{ so'm.}$

3-misol. 1000 so'm nominal qiymatiga va muomala qilish muddati 90 kunga teng bo'lgan obligatsiya 85 kursi bo'yicha sotib olinadi. Beshta obligatsiyani sotib olishdan tushadigan daromadni va bir yilda 360 kun deb hisoblaganda moliyaviy operatsiyaning daromadlilikini aniqlang.

Yechish: $N_q = 1\,000 \text{ so'm.}; t = 90 \text{ kun}; k = 360 \text{ kun}; O_k = 85.$ Bitta obligatsiyadan uning qiymatini qoplash sharti bilan olinadigan daromad quyidagi miqdorni tashkil etadi:

$$D = N_q - \frac{O_k \times N_q}{100} = N_q \left(1 - \frac{O_k}{100} \right) = 1000 \times \left(1 - \frac{85}{100} \right) = 150 \text{ so'm}$$

$$D = N - \frac{P_k \times N}{100} = N \left(1 - \frac{P_k}{100} \right) = 1000 \left(1 - \frac{85}{100} \right) = 150 \text{ so'm}$$

Beshta obligatsiyani sotib olishdan tushadigan daromad miqdori $W = 5W_1 = 5 \times 150 = 750 \text{ so'mni}$ tashkil etadi.

Obligatsiyaning daromadlilikigi oddiy foizlar stavkasi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichni tashkil qiladi:

$$i_s = \frac{N_q - O}{O} \times \frac{k}{t} = \frac{1000 - 850}{8500} \times \frac{360}{90} = \frac{150}{850} \times 4 = \frac{60}{85} = 0,706 = 70,6\%.$$

4-misol. Obligatsiya 95 kursi bo'yicha sotib olingan va uning qiymatini qoplash uchun 10 yil muddat

berilgan. Obligatsiya bo'yicha foizlar 5%, yillik murakkab stavkasi bo'yicha muddatning oxirida hisoblab beriladi. Obligatsiyani sotib olish daromadlilikini aniqlang.

Yechish: $O_k = 95$; $q = 0,05$; $n = 10$.

$$D_t = \frac{O_k \times N}{100} = 0,95N.$$

10 yilga foiz daromadi

$$D_f = N(1+q)^n - N = N[(1+q)^n - 1] = N[1,05^{10} - 1] = 0,629N$$

tashkil etadi.

Qoplagandan keyin tushadigan daromad esa

$$D_q = N(1 - 0,01O_k) = N(1 - 0,95) = 0,05N \text{ ni tashkil etadi.}$$

Umumiy daromad

$$D_u = D_f + D_q = 0,629N + 0,05N = 0,679N \text{ ni tashkil etadi.}$$

Samarali murakkab foiz stavkasi bo'yicha obligatsiyani sotib olish daromadlilikini

$$D_{mfs} = \sqrt[n]{\frac{D_u + N}{N}} - 1 = \sqrt[10]{\frac{0,679N + N}{N}} - 1 = \sqrt[10]{1,679} - 1 = 1,053 - 1 = 0,053 = 5,3\%$$

ga teng.

5-misol. 100 ming so'm nominal qiymatiga teng bo'lgan bank vekseli diskont bilan uch oyga joylashtirilgan. Joylashtirish narxi 92 ming so'mga teng. Agar vekselni qoplash muddatidan 30 kun oldin sotilgan bo'lsa, veksels egasining daromadini aniqlash talab qilinadi. Mazkur davrda bir oylik veksels bo'yicha amaldagi bozor stavkasi 15%ga teng.

Yechish: Bir oylik veksels bo'yicha daromadni aniqlaymiz:

$$D_t = \frac{V_{bs} \times N_q \times k_m}{k} = \frac{0,15 \times 100 \times 30}{360} = 1,25 \text{ ming so'm}$$

Sotiladigan vekselning bozor narxi:

$$V_{bn} = N_q - D_t = 100 - 1,25 = 98,75 \text{ ming so'm}$$

Birinchi veksels egasi - sotuvchining daromadi:

$$D_s = V_{bn} - J_n = 98,75 - 92,0 = 6,75 \text{ ming so'm}$$

Ikkinchi veksel egasi – sotib oluvchining daromadi:

$$D_{so} = N_q - V_{bn} = 100 - 98,75 = 1,25 \text{ ming so'm}$$

Veksel bo'yicha umumiy daromadi:

$$D_u = D_i + D_{so} = 6,75 - 1,25 = 8,0 \text{ ming so'm}$$

Moliyaviy veksel nafaqat diskont bilan, balki nominal bo'yicha ham joylashtirilishi mumkin. Bu holatda veksel egasining daromadi foiz stavkasiga bog'liq, ya'ni:

$$D = \frac{i \times N_q \times t}{360(365)}$$

bu yerda,

D – veksel egasining daromadi;

i – bir yillik foiz stavkasi;

N_q – vekselning nominal qiymati;

t – vekselning muomala qilish muddati
(kunlar hisobida);

$360(365)$ – ularga mos ravishda oddiy va aniq
foizlarni hisoblash uchun vaqt
bazasi.

6-misol. 95 ming so'm nominal qiymatiga teng bo'lgan bank depozit sertifikatini olti oy muddatga 15% yillik foiz stavkasi bilan joylashtirilgan. Uch oydan keyin olti oy muddati bo'yicha qarzdorlik majburiyatlari bozor narxi 20%ni tashkil etdi. Sertifikat egasi ushbu sertifikatni sotishga qaror qilsa, qancha daromad olishi mumkin?

Yechish: Butun muomala qilish muddati bo'yicha sertifikatdan olinadigan umumiy daromad miqdori:

$$D = \frac{DS_s \times N_q \times t}{k_o} = \frac{0,15 \times 95,0 \times 6}{12} = 7,1 \text{ ming so'm}$$

Sertifikatning qoplash muddatiga qadar qo'shib boradigan qiymati:

$$S_{qq} = N_q + D = 95,0 + 7,1 = 102,1 \text{ ming so'm}$$

Sertifikatning sotish sanasigacha bo'lgan bozor qiymatini hisoblaymiz:

$$S_{bq} = \frac{S_{qq}}{\left[\frac{(1+i_{bz} \times t)}{12} \right]} = \frac{1021}{\left[\frac{(1+(0,20 \times 6))}{12} \right]} = 92,8 \text{ ming so'm}$$

bu yerda,

S_{qq} – qo'shib boradigan qiymat;

i_{bz} – bozor foiz stavkasi;

t – muqobil qarzдорlik majburiyatlarining muomala qilish muddati.

Sotib oluvchining daromadi:

$$D_{so} = S_{qq} - S_{bq} = 102,1 - 92,8 = 9,3 \text{ ming so'm tashkil etadi.}$$

Sotuvchining daromadi:

$$D_s = S_{bq} - N_q = 92,8 - 95,2 = 2,4 \text{ ming so'm tashkil etadi.}$$

Shunday qilib, ushbu bitim amalga oshirilganda sertifikat sotuvchiga zarar keltirgan bo'lar edi. Bu shu bilan izohlanadiki, sertifikatning bozor narxi joriy bozor stavkasi va sertifikat qiymatini qoplash sanasigacha qolgan muddatiga bog'liq va bunda teskari proporsional bog'liqlik hosil bo'ladi: nomi keltirilgan ko'rsatkichlarning miqdori qancha yuqori bo'lsa, sertifikatning bozor narxi shunchalik past bo'ladi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Agar bankda veksel 15% qayd etish stavkasi bo'yicha olingan bo'lsa, vekselni qoplash muddati 80 kunga teng bo'lsa, vekselni hisobga olishda vaqt bazasi 365 kun, foizlarni hisobga olish va hisoblashda vaqt bazasi esa 360 kunni tashkil etgan bo'lsa, hisobga olish operatsiyaning daromadlilikini aniqlab beradigan ekvivalent foiz stavkasi miqdorini toping.

2-topshiriq. Obligatsiya besh yil muddatga

chiqarilgan, uning nominal qiymati 100 ming so'm, uning yillik foiz stavkasi esa, 20% ga teng. Qarzdorlik muddati tugashi bilan obligatsiyaning qo'shib boradigan qiymatini aniqlang.

3-topshiriq. 1 aksiyaning nominal qiymati 35 ming so'mga teng bo'lgan 20 ta aksiyalar sotilgan. Sotish narxi 65 ming so'mni tashkil etdi. Aksiyaning sotishdan olinadigan moliyaviy natijasini aniqlang.

4-topshiriq. 1 mln.so'm nominal qiymatiga ega bo'lgan veksel uni qoplash muddatigacha 100 kun o'tgandan keyin to'lash sharti bilan bankka topshirilgan. Bank o'zining daromadini aniqlash uchun 9% oddiy foiz stavkasini qo'lladi. Vaqt bazasi 365 kunga teng bo'lgan sharoitda veksel egasiga to'langan mablag' va bankning diskont miqdorini aniqlang.

5-topshiriq. Agar veksel 20% yillik murakkab qayd etish stavkasi bo'yicha sotib olingan bo'lsa, vekselni qoplash muddati 180 kunga teng bo'lsa, vekselni hisobga olishda vaqt bazasi 365 kun, foizlarni hisobga olish va hisoblashda vaqt bazasi esa 360 kunni tashkil etgan bo'lsa samarali murakkab foiz stavkasi ko'rinishda daromadlilikni aniqlang.

6-topshiriq. Sarmoyador 2 yil muddatga 5,6% yillik foiz stavkasi bo'yicha 110 mln.so'm mablag' kiritgan. Sarmoyador 2 yildan keyin oladigan mablag' miqdorini hisoblang.

7-topshiriq. Aksiya 10 ming so'm nominal qiymatida 60% yillik dividend stavkasi bo'yicha sotib olingan. Aksiya chiqarilgan kundan boshlab bir yil o'tgandan keyin aksiyaning bozor qiymati 18 ming so'mni tashkil etgan. Aksiyaning umumiy daromadlilikini aniqlang.

8-topshiriq. Quyidagilar ma'lum bo'lgan taqdirda diskont miqdorini aniqlang:

- vekselning nominal qiymati – 50 ming so'm;
- vekselni hisobga olish sanasi – 2013-yil 6-mart;

-veksel bo'yicha to'lash muddati – 2013-yil 23-iyul;

-veksel bo'yicha yillik foiz stavkasi – 25%.

9-topshiriq. Sarmoyador 10 mln.so'm miqdoriga teng vekselga ega. Uning qoplash muddati 30 kunga teng. Agar sarmoyador vekselni 6% yillik qayd etish foiz stavkasi bo'yicha bankda hisobga olinsa sarmoyador olinadigan mablag' miqdorini aniqlang.

10-topshiriq. Sarmoyador muomala qilish muddati 295 kunga teng bo'lgan omonat sertifikatini sotib oldi. Sertifikatda sarmoyador qo'yilmaning miqdori 100 mln.so'mni tashkil etilganligi, ushbu mablag' miqdori bo'yicha foizlar esa, 12% yillik foiz stavkasi bilan hisoblab borishi ko'rsatilgan. Agar sarmoyador sertifikatni qoplash sanasigacha o'zida saqlasa, uning daromadi va yillik daromadlilik miqdorini aniqlang.

7-Amaliy mashg'ulot. Inflatsiya

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga inflatsiyaning mohiyati va uning yuzaga chiqish shakllari; inflatsiyaning shakllari va turlari; inflatsiya nazariyalari; inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar; inflatsiyaning barqarorlashtirish usullari; inflatsiya ko'rsatkichlari haqida tushuncha va tasavvurlarni rivojlantirish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Inflatsiyaning mohiyati va uning yuzaga chiqish shakllari.

2. Inflatsiyaning turlari (galoinflatsiya, giperinflatsiya, sudraluvchi inflatsiya).

3. Inflatsiya va ishsizlik, Fillips egri chizig'i.

4. Inflatsiya nazariyalari (J. Keyns va M. Fridmen qarashlari).

5. Inflatsiya ko'rsatkichlari.

6. Baho indekslari – inflatsiyani hisoblash usuli sifatida.

7. Pul emissiyasi.

8. Budget tanqisligi.

9. Ishlab chiqarishning pasayib ketishi.

10. Savdoning kamsitilishi (diskriminasiya).

11. Savdo va to'lov balansining salbiy qoldig'i.

12. Ichki va tashqi qarzning o'sib ketishi.

13. Davlatning inflatsiya bo'yicha makroiqtisodiy siyosati: budget, soliq, baho, kredit va moliyaviy, tashqi iqtisodiy va emission.

14. Inflatsiyani barqarorlashtirish usullari (monetar va Keyns), ularning tavsifi.

15. Milliy valutaning sotib olish quvvatini mustahkamlash.

16. Budget taqchilligini kamaytirish.

17. Pul islohotlari.

18. Inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Inflatsiya nima?

2. Inflatsiyaga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?

3. Pul bozorini tartibga solish yo'llari nimalardan iborat?

4. Talab inflatsiyasi nima? Taklif inflatsiyasichi?

5. Davlatning inflatsiyaga qarshi siyosati izohlab bering.

6. Giperinflatsiya nima?

7. Yashirin inflatsiya nima?

8. Iqtisodiyotni emission tartibga solish deganda nimani tushunasiz?

9. Antiinflyasion siyosat nima?

10. Baholar indeksi nimadan iborat?

11. Deflyatorning mohiyati nima?

12. Inflatsiya to'g'risidagi Dj. Keynsning qarashlari nimalardan iborat?

13. Inflatsiya to'g'risidagi M. Fridmenning qarashlari nimalardan iborat?

14. Inflatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini yoriting.

15. Inflatsiyaga nisbatan antiinflyasion siyosatining mohiyatini yoriting.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Inflatsiya – bu pul tizimining inqiroz holati. «Inflatsiya» atamasi pul muomalasi nuqtai nazardan XIX asr o'rtalarida AQSHda Fuqarolik urushi yillarida (1861-1865-yy.) qog'oz dollarni ko'p miqdorda chiqarishi tufayli paydo bo'lgan. Uzoq vaqt davomida inflatsiyaga monetar hodisa sifatida ko'rib, pullarning qadrsizlanishi va tovarlarning narxi oshishi deb tushunilgan. Hozirgacha ham ayrim mualliflar inflatsiyani iqtisodiyotda narxlarning umumiy darajasi oshishi bilan belgilaydi.

Inflatsiya o'z mohiyatiga asosan pulning qadrsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jarayonini anglatadi.

Inflatsiya deb shunday jarayonni tushunish kerakki, unda muomalada tovarlar xajmiga keragidan ortiqcha naqd pul paydo bo'lib, narx-navo o'sib, qog'oz pullarni qadrsizlanishiga olib keladi va shu tufayli pul o'z harid qobiliyatini pasaytiradi.

Inflatsiya yuzaga chiqishiga asosan sokin, shiddatli va jilovlanmagan inflatsiyaga ajratiladi. Xalqaro amaliyotda inflatsiyaning asosan uch shakli ajratiladi:

- sokin inflatsiya;
- shiddatli inflatsiya;

– giperinflatsiya.

Inflatsiya ikki tarzda yuzaga chiqadi: ochiq inflatsiya va yashirin inflatsiya.

Inflatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi. Baholar indeksidan tashqari inflatsiyani boshqarishda yalpi ichki mahsulot indeksi ko'rstakichidan foydalaniladi. Yalpi ichki mahsulot – bu ma'lum bir davr mobaynida, odatda bir yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy miqdorining puldagi ifodasidir. Yalpi ichki mahsulot baholar indeksini umumiy darajasini o'lchash uchun deflyatordan foydalaniladi. Deflyator – bu pul ifodalangan iqtisodiy ko'rsatqiyalarni o'tgan davrdagi baholar darajasiga nisbatan taqqoslash maqsadida qo'llaniladigan koeffitsientdir. Har bir mamlakatda inflatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatnig yomonlashuviga sabab bo'ladi. Inflatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo'lib daromadlar va boyliliklarni qayta taqsimlanishi amalga oshishi hisoblanadi.

Inflatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. Shuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflatsiyaning butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va uning salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

Antiinflyatsion siyosatni olib borishda ikki yo'nalishdan: pul islohotlarini amalga oshirish va inflyasion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turishlikdan foydalaniladi.

Antiinflyatsion chora-tadbirlar rang-barang bo'lib, ular har bir mamlakatni o'z xususiyatlaridan hamda

hukumatning oqilona antiinflyatsion siyosat ishlab chiqishga hamda uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Jahon amaliyotida inflatsiya darajasi valuta kurslarning yoki narxlar darajasi o'zgarishi orqali hisobga olinadi.

Inflatsiya darajasini hisobga olishning ikkinchi yondoshuvi narxlar indeksi yordamida o'lchanadi. Narxlar indeksi – bu joriy yildagi «bozor savatcha»ning umumiy narxlarning bazis yildagi ushbu «bozor savatcha»ning umumiy narxlariga nisbatidir.

Inflatsiyaning ta'sirining miqdoriy baholash uchun i inflatsiya darajasi va I inflatsiya indeksi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Inflatsiya darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$i = \frac{(N_i - N_{i-1}) \times 100}{N_{i-1}}$$

bu yerda,

N_i – i - yildagi narxlar darajasi;

N_{i-1} – bazis yildagi narxlar darajasi.

Inflatsiya indeksi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I = \frac{N_i}{N_{i-1}} \quad \text{yoki} \quad I = i + 1$$

Inflatsiya darajasi, bazis yili darajasidagi xarid qilish qobiliyatini saqlash uchun dastlabki miqdorini qancha foizga oshirishni ko'rsatadi. Inflatsiya indeksi ko'rilayotgan davr mobaynida narxlar qanchaga o'sganligini ko'rsatadi.

1-misol. Yil davomida oylik inflatsiya darajasi 3%ga teng. Yil davomidagi inflatsiya darajasini aniqlang?

Yechish:

1) yil davomida inflatsiya indeksini aniqlaymiz:

$$In = (1 + r_n)^n = (1 + 0,03)^{12} = 1,43$$

2) yil davomida inflatsiya darajasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$r = In - 1 = 1,43 - 1 = 0,43 = 43\%$$

2-misol. Oylik inflatsiya darajasi 10%ga teng. Yil davomidagi inflatsiya indeksi va yillik inflatsiya darajasini aniqlang?

Yechish:

1. Yil davomida inflatsiya indeksi quyidagiga teng:

$$In = (1 + 0,1)^{12} = 3,14$$

2. Yil davomida inflatsiya darajasi quyidagiga teng:

$$r = 3,14 - 1 = 2,14 = 214\%$$

3-misol. Agar o'tgan yili narxlar indeksi 110 ga, joriy yilda esa - 121 ga teng bo'lgan bo'lsa, joriy yilda inflatsiya darajasining ko'rsatkichi qanaqa bo'ladi?

Yechish: Shartlarga ko'ra inflatsiya darajasi quyidagicha bo'ladi:

$$i = \frac{(121 - 110)}{110} = 0,10 \quad (10\%)$$

Shunday qilib, narxlar 10%ga oshgan bo'ladi.

Inflatsiya indeksi, bu yerda $I = 1 + 0,1 = 1,1$ ni tashkil etgan. Demak, narxlar 1,1 martaga oshgan.

4-misol. Agar inflatsiya darajasi bir yilda 2%, 3%, 5%, 10% da saqlansa narxlarni ikki barobar oshirish uchun qancha vaqt talab qilinadi?

Yechish. $t = \frac{70}{i}$

bu yerda,

t - narxlarni (inflatsiya darajasini) ikki barobarga oshirish uchun kerak bo'lgan ehtimol yillar soni.

Agar $i = 2\%$ bo'lsa, unda $t = \frac{70}{2} = 35$ yilga teng bo'ladi, ya'ni narxlarning hozirgi o'sish sur'ati sharoitida narxlar darajasini ikki barobarga oshirish uchun 35 yil talab qilinadi.

Agar $i = 3\%$ bo'lsa, unda $t = \frac{70}{3} = 23.3$ yil talab qilinadi.

Agar $i = 5\%$ bo'lsa, unda $t = \frac{70}{5} = 14$ yil talab qilinadi.

Agar $i = 10\%$ bo'lsa, unda $t = \frac{70}{10} = 7$ yil talab qilinadi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ikkinchi yilda real foiz stavkasi birinchi yilga nisbatan o'zgarish miqdorini toping.

Yil	Inflatsiya darajasi (%)	Nominal stavkasi (%)
1	5	10
2	10	5

2-topshiriq. Yil davomida oylik inflatsiya darajasi 1,5%ga teng. Yil davomidagi inflatsiya darajasini aniqlang.

3-topshiriq. Oylik inflatsiya darajasi 5%ga teng. Yil davomidagi inflatsiya indeksi va yillik inflatsiya darajasini aniqlang.

4-topshiriq. Oylik inflatsiya darajasi 10% ga teng. Yil davomida inflatsiya indeksi va inflatsiya darajasi aniqlang.

5- topshiriq. Bankka 100 000 so'm miqdoridagi omonat 3 yilga har oy murakkab foizlar hisoblash sharti bilan qo'yilgan. Omonat bo'yicha yillik stavka - 25%. Inflatsiya darajasi - oyiga 3%. Quyidagilarni aniqlang:

- omonat miqdori (foizlar bilan birga);
- uch yil uchun inflatsiya indeksi;

6-topshiriq. Bankka 550 000 so'm miqdoridagi omonat yarim yilga har oy murakkab foizlar hisoblash sharti bilan qo'yilgan. Omonat bo'yicha yillik stavka -

15%. Inflatsiya darajasi – oyiga 5%. Quyidagilarni aniqlang:

- omonat miqdori (foizlar bilan birga);
- 3 oy uchun inflatsiya indeksi.

7-topshiriq. Bankda veksel uning pulini qaytarib berish muddatidan yarim yil oldin hisobga olinadi. Oylik inflatsiya darajasi – 3%ga teng. Hisobga olish operatsiyasining real daromadliligi – yillik 5%ga teng (kredit operatsiyalari real daromadliligiga mos keladi). Quyidagilarni aniqlang:

- hisobga olgan sanasidan boshlab to pulni qaytarib berish muddatigacha bo'lgan davrda inflatsiya indeksi;
- inflatsiyani hisobga olib, kredit bo'yicha foiz stavkasi;
- operatsiya daromadliligi.

8-topshiriq. Bank jismoniy shaxsga 3 oy muddatga 1 mln. so'm miqdorida kredit berdi. Kutilayotgan oylik inflatsiya darajasi – 2%ga teng, operatsiyaning talab qilinadigan real daromadliligi esa – yillik 5%ga teng. Quyidagilarni aniqlang:

- kredit muddatida inflatsiya indeksi;
- inflatsiyani hisobga olgan holda kredit bo'yicha foiz stavkasi;
- foizlar bo'yicha to'lanadigan summa;

9-topshiriq. Korxonaga bank tomonidan 10 mln so'm kredit 3 oy muddatga berilgan. Faraz qilaylik, kreditni to'lash vaqtiga kelib narx indeksi 1,2 ni tashkil qiladi. Kredit operatsiyasining talab qilinadigan real daromadliligi – yillik 4%ga teng, yil davomidagi kunlar soni – 360 kun. Qo'ydagilarni aniqlang:

- inflatsiyani hisobga olgan holda kredit bo'yicha foiz stavkasi;
- to'lanadigan summa;
- kredit uchun foiz miqdori.

8-Amaliy mashg'ulot. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari va valuta tizimi

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga valuta munosabatlari va valuta tizimining asosiy belgilari; valuta bozorlari va ularning turlari; valuta siyosatining tushunchasi, maqsadi, shakllari; to'lov balanslarining asosiy belgilari; xalqaro hisob-kitoblar shakllari; xalqaro kredit tushunchasi va uning shakllari bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot rejası:

1. Valuta munosabatlari, valuta tizimi va valuta kursi.
2. To'lov va hisob-kitob balanslari.
3. Valuta siyosati.
4. Xalqaro hisob-kitoblar, ularning shakllari.
5. Xalqaro kredit munosabatlari.
6. Xalqaro iqtisodiy aloqalar – valuta munosabatlarining asosi sifatida.
7. Valuta tizimi va uning asosiy elementlari.
8. Jahon valuta tizimi va uning evolyutsiyasi.
9. Valuta kursi va unga ta'sir qiluvchi omillar, valuta kurslarining turlari.
10. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari.
11. Xalqaro hisob-kitob shakllari.
12. Hisob-kitob balansi va uning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni.
13. To'lov balansi, uni tuzish tamoyillarining asosiy bo'limlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Valuta tizimining asosiy elementlari nimalardan iborat?

2. Yamayka va Parij valuta tizimlarining asoslari nimalardan iborat?
3. Yevrovaluta tizimining tashkil topishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalqaro valuta fondiga izoh bering.
5. Nima maqsadda Yevro muomalaga kiritildi?
6. Xalqaro valuta tizimining elementlari nimalardan iborat?
7. Valuta ayirboshlash deganda nimani tushunasiz?
8. Valuta savati nima?
9. Hujjatli akkreditivning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Valuta birjasi faoliyati va uning operatsiyalarini tushuntirib bering.
11. Bank cheki deganda nimani tushunasiz?
12. Bank vekseli nima?
13. O'zbekistonda Xalqaro hisob-kitoblarning tashkil etilishini yoritib bering.
14. Xalqaro hisob-kitob shakllarini qo'llash imkoniyatlari nimalardan iborat?
15. O'tkazma deganda nimani tushunasiz?
16. Savdo balansining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
17. Passiv va aktiv savdo balansini nima?
18. To'lov balansiga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
19. To'lov balansining taqchillikgiga barham berishning qanday usullarini bilasiz?
20. Xalqaro hisob-kitob balanslarini tushuntirib bering.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari – bu, valuta va kredit berish mexanizmlarning jahon xo'jaligida amal

qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo'jaliklar faoliyat natijalarining o'zaro almashuviga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir.

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari moddiy ishlab chiqarish jarayoniga, ya'ni birlamchi ishlab chiqarish munosabatlariga hamda taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonlariga aloqador bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Valuta-kredit munosabatlari va takror ishlab chiqarish o'rtasida bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) hamda oqibat xarakteridagi (qaytma) aloqalar mavjud. Ularning obyektiv asosi bo'lib tovarlar, kapitallar, xizmatlar bilan xalqaro almashuvni vujudga keltiruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi.

Valuta-kredit munosabatlarining holati quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;
- siyosiy ahvolga;
- jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va ushbu muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

Valuta-kredit munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

Valuta tizimi - bu, mamlakatlar o'rtasida valuta munosabatlarini tashkil etish shakli hamda iqtisodiyotning integratsiyalashuvi va globallasuvi asosida tarixan shakllangan, valuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Valuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Subyektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus adabiyotlarda valuta tizimlarining 3 ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va hududiy valuta tizimlari.

Milliy valuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Jahon valuta tizimi XIX asrning o'rtalariga kelib shakllandi. Jahon valuta tizimi milliy valuta tizimi elementlari bilan yaqindan aloqada bo'lgan ma'lum bir elementlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

- zaxira valutilari, xalqaro hisob-kitob valuta (pul) birligi (SDR);

- valutilarning o'zaro konvertatsiya qilinish shartlari;

- valuta paritetlarining soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi;

- valuta kurslari rejimlarini tartibga solish (reglamentatsiya);

- valuta cheklanishlarini davlatlararo muvofiqlashtirish;

- xalqaro valuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish;

- xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya);

- xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya);

- jahon valuta va oltin bozorlari rejimi;
- davlatlararo valuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Jahon valuta tizimi jahon pullarining amal qiluvchi shakllariga asoslangandir. Jahon puli deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullari amaldagi shakllarining evolyutsiyasi birmuncha kechikib bo'lsa-da, oltin pullardan boshlab to kredit pullargacha bo'lgan milliy pullarning rivojlanish yo'lini qayta bosib o'tadi. Bunday qonuniyat asosida jahon valuta tizimi XX asrga kelib jahon yetakchi mamlakatlarining bir yoki bir nechta milliy valutariga (an'anaviy yoki Yevrovaluta shaklida) yoki xalqaro valuta birligiga (SDR) asoslanadi.

Hududiy valuta tizimi – bu, hududiy birlashma a'zolari bo'lmish mamlakatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etishning shaklidir. Bunga yaqqol misol sifatida Yevropa valuta ittifoqini keltirish mumkin.

Hududiy valuta tizimining elementlari jahon valuta tizimi elementlariga o'xshashdir.

Jahon va hududiy valuta tizimlari o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, egiluvchan bo'lishi hamda alohida davlatlar va butun jahon manfaatlarida muvozanatni saqlash xususiyatiga ega bo'lmoq lozim. Faqatgina shunday sharoitlarda valuta tizimi uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli amal qilishi mumkin.

Jahon valuta tizimi shakllanishida valuta operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, **valuta operatsiyalari** (bitimlar)ni valuta bozori ishtirokchilarining oldi-sotdi, to'lovlar, muayyan shartlari (valuta nomi, miqdori, almashish kursi, foiz

stavkasi, valutalashtirish sanasi ko'rsatish shartlari) bilan xorijiy valutada ssuda berish bo'yicha kelishuv (shartnomalar) sifatida ifodalanadi.

Xorijiy valutarlar deb xorijiy davlatlarning naqd va naqdsiz shakldagi pul birliklari, xalqaro pul birliklari (SDR, yevro) hamda xorijiy davlatlarning pul birligida to'lashga lozim bo'lgan veksellar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarga tushuniladi.

Milliy valutani kelishilgan narxda almashtiradigan jarayon **valuta kursi** deb ataladi, ya'ni bir davlatning pul birligi qiymati ikkinchi davlatning pul birligi qiymatida ifodalanadi.

Valuta kursining qiymat asosiga xarid qilish qobiliyati pariteti (XQQP) hisoblanadi, ya'ni valutarlarning xarid qilish qobiliyatining nisbati. Valuta kursining XQQPdan nisbatan og'ishi valutaga bo'lgan talab va taklif ta'sirida ro'y beradi, ular o'z navbatida, turli omillarga bog'liq (iqtisodiyotning holati, siyosiy ahvol, valuta siyosati, kapitalning xalqaro migrasiyasi va boshqalar) shunday qilib, valuta kursining shakllanishi - ko'p omilli jarayondir. Eng ko'zga ko'rinadigan omillar qatoriga valutaga bo'lgan talab va taklif, inflatsiyaning sur'ati, foiz stavkasining darajasi va qimmatli qog'ozlarning daromadliligi, to'lov balansining holatini kiritish mumkin.

Valuta kursi uch turga bo'linadi: nominal, haqiqiy va samarali. *Nominal valuta kursi* - bu valutarlar almashadigan kursdir. Inflatsiya darajasining valuta kursiga nisbatan ta'sirini hisoblash uchun *haqiqiy valuta kursi* aniqlanadi. Xuddi YaIMni solishtirish uchun joriy narxdan doimiy narxga o'tkazish kabi valuta kursi ham haqiqiy o'lchamlarga o'tkazilishi mumkin. Birinchi davlatning haqiqiy valuta kursining ($D1$) ikkinchi davlatning haqiqiy valuta kursiga ($D2$) nisbati - bu ikki davlatning narx indeksini hisobga

olgan holda hisoblangan birinchi davlatning nominal valuta kursidir. (D1) haqiqiy valuta kursining (D2) valutaga nisbati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_{k_h} = V_{k_n} \times \frac{I_{d1}}{I_{d2}}$$

bu yerda,

V_{k_h} – D1 haqiqiy valuta kursi;

V_{k_n} – D2 nominal valuta kursi;

I_{d1} – 1-chi davlatning narx indeksi;

I_{d2} – 2-chi davlatning narx indeksi;

Agar mamlakatda narx indeksi xorijiy davlatdagidan past bo'lsa, ushbu davlatning haqiqiy valuta kursi nominaldan past bo'ladi. Agar mamlakatda yuqori sur'at bilan inflatsiya kuzatilsa, ushbu mamlakat milliy valutaning haqiqiy kursi nominal kursidan yuqori bo'ladi.

1-misol. Bank yopiq valuta pozitsiyasiga ega. Bank 1 mln.AQSH doll.ni Daniya kroniga nisbatan 5,8323 kursi bilan sotib olgandan keyin ochiq valuta pozitsiyasining miqdorini aniqlang.

Yechish. Dollar bo'yicha 1 mln.AQSH doll. miqdorida uzun valuta pozitsiyasi, kron valutasi bo'yicha – 5 832 300 (1 000 000 x 5,8323) daniya kroni miqdorida qisqa valuta pozitsiyasi kutiladi.

2-misol. AQSH dollariga nisbatan so'mning nominal kursi 2 028 so'm, AQSHda inflatsiya darajasi – 3,4%, O'zbekistonda – 7,0%. So'mning dollarga nisbatan haqiqiy kursini aniqlang, so'mning haqiqiy kursini nominal kursi bilan solishtiring.

Yechish. So'mning haqiqiy kursi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_{k_h} = V_{k_{n1}} \times \frac{I_{d1}}{I_{d2}} = 2028 \times \frac{1,034}{1,07} = 1959,77$$

Dollarga nisbatan so'mning kursi 1959,77 so'mni tashkil etdi. So'mning haqiqiy kursi nominal kursidan yuqori, chunki O'zbekistonda inflatsiya darajasi AQSHdagiga nisbatan yuqori.

3-misol. Agar valutaning nominal kursi 3,1%ga tushgan bo'lsa, AQSHda narxlar 3,4%ga, O'zbekistonda - 12,1%ga ko'tarilgan bo'lsa, dollarga nisbatan so'mning haqiqiy kursi qay tarzda o'zgaradi.

Yechish. So'mning haqiqiy kurs indeksi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S_{ik_h} = V_{k_n} \times \frac{I_{d1}}{I_{d2}} = 1,031 \times \frac{1,034}{1,121} = 0,951$$

AQSH dollariga nisbatan so'mning haqiqiy kursi 0,05 (1,0 - 0,951) yoki 5,0%ga oshdi.

4-misol. AQSH dollarining kursi SHvetsariya frank valutasida 1,2513 ga, yevro valutasida - 0,7822 ga teng. Yevroning frankdagi kross-kursini hamda frankning yevrodagi kross-kursini aniqlang.

Yechish. Dollar frank va yevro valutalarning muomala qilish negizi bo'lganligi sababli yevroning kross-kursini topish uchun frankga nisbatan dollar kursini yevroga nisbatan dollar kursiga bo'lish kerak. Demak yevroning kross-kursi 1,5997 (1,2513/0,7822) Shveysariya frankiga teng.

Frankning kross-kursini topish uchun yevroga nisbatan dollar kursini frankga nisbatan dollar kursiga bo'lish kerak. Shunda frankning kross-kursi 1,5997 (0,7822/1,2513) yevroga teng.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Ayirboshlash shoxobchasi so'mga nisbatan quyidagi AQSH dollar kursini belgilagan:

2028,56/2028,56. Mijozlardan bittasi 1 000 AQSH doll.ni sotgan, boshqasi esa, 1 000 AQSH doll.ni sotib olgan. Bank ushbu operatsiyadan qancha foyda olgan?

2-topshiriq. Agar 1 yevro 1,3176 AQSH dollarga teng bo'lsa, 1 dollar yevro hisobida qanchaga teng bo'ladi?

3-topshiriq. Valuta dileri AQSH dollarida 1,3176 kursi bo'yicha 1 mln. yevro sotib olgan. Kun oxirida u 1,3194 kurs bo'yicha 1 mln. yevroni sotgan. Diler ushbu operatsiyalardan qanday daromad olgan?

4-topshiriq. Ingliz kompaniyasi AQSHdan tovarlarni yetkazib berish uchun haq to'lash maqsadida AQSH dollarni xarid qilishga qaror qildi. Bank dollarga nisbatan funt sterlingning kursini 1,9643/1,9655 deb qayd etdi. Ayirboshlash qaysi kursi (1,9643 yoki 1,9655) bo'yicha amalga oshiriladi?

5-topshiriq. AQSH dollarning kursi SHvetsariya franklarda 1,2129 ga teng, AQSH dollarning kursi yevroda 0,7590ga teng. Yevroning frankdagi kross-kursini hamda frankning yevrodagi kross-kursini aniqlang.

6-topshiriq. Agar funt sterlingga nisbatan dollarning kursi 1,9643, yevroga nisbatan dollarning kursi 0,7590 ga teng bo'lsa, funt sterlingning yevroga nisbatan kross-kursini aniqlang.

7-topshiriq. Agar AQSH dollarga nisbatan yevroning kursi 1,3176ga, dollarga nisbatan funt sterlingning kursi 1,9643ga teng bo'lsa, AQSH dollarga nisbatan funt sterling va yevroning kross-kursini aniqlang.

8-topshiriq. Ingliz eksport qiluvchi shaxs SHvetsariya frankida to'lash majburiyatini olgan. Dollarga nisbatan frank va funt sterling kurslari quyidagicha qayd etilgan: f.st./doll. 1, 9643 va doll./shv.fr. 1,2129. Bu holatda mazkur shaxs tomonidan franklarni funt sterlingga ayirboshlash kursini aniqlang.

9-topshiriq. Agar spot kursi doll./yevro 0,7590ga, uch oylik stavkasi dollar bo'yicha 4,5%ga, yevro bo'yicha – 2%ga teng bo'lsa, yevro hisobida AQSH dollarining uch oylik forward kursini hisoblab bering.

10-topshiriq. Kompaniya 5% yillik qayd etish stavkasi bo'yicha 1 yil muddatga 10 mln. Daniya kroni miqdorda qarz olmoqchi. Ammo faqatgina «suzib yuruvchi» stavkasi bo'yicha kredit olish imkoniyati mavjud.

Kompaniya kreditni xalqaro bozorida AQSH dollarda 2,5% yillik stavkasi bo'yicha xarid qilish, xarid qilingan dollarga «spot» orqali kronlarni xarid qilish va kronlarni bir yil uchun forward bo'yicha dollarga sotish mumkin.

Agar kredit olingan paytida spot kursi Daniya kroni/AQSH doll. 5,6537ga teng bo'lganda kompaniya kredit olish uchun qancha miqdorda AQSH dollarni xarid qilish lozim va kronlarni qaysi forward kursi bo'yicha dollarda xarid qilish samarali hisoblanadi.

11-topshiriq. Faraz qilaylik, spot bozorida yevroning kursi 1,3176 AQSH doll.ga teng. Bank uch muddatga yevroning dollarga nisbatan 1,3026 kursi bilan 10 000 yevro miqdorida «PUT» opsiyonni xarid qiladi. Opsion bo'yicha mukofot 1 yevro hisobiga 0,06 AQSH dollarni, ya'ni 10 000 yevro hisobiga 600 AQSH dollarni tashkil etadi. opsiyonni sotuvchi shaxsga mukofotni qisman hamda to'liq qoplash uchun qaysi kurs bo'yicha opsiyonni sotish samarali hisoblanadi va opsioning xaridori qaysi kursi bo'yicha olgan opsiondan foyda olish mumkin?

9-Amaliy mashg'ulot. Sug'urtalash

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uning zarurligi va funksiyalari; sug'urtaning turlari va shakllari;

O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligi; sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari; bank faoliyatini va tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uning zarurligi va funksiyalari.

2. Majburiy va ixtiyoriy sug'urtani tashkil qilish tamoyillari.

3. Sug'urtalash turlari va ularni takomillashtirish yo'llari.

4. O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligi.

5. Sug'urtani obyektlar va risk darajasiga ko'ra tavsifi.

6. Tarmoqlar, tarmoqlararo sug'urtaning turlari, shakllari.

7. Korxonalar oborot va asosiy vositalari sug'urtasi.

8. Qishloq xo'jaligida sug'urtalash.

9. Transport sug'urtasi.

10. Fuqaro mulklarining sug'urtasi.

11. Hayot sug'urtasi.

12. Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha sug'urta.

13. Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari.

14. Bank faoliyatini sug'urtalash.

15. Tashqi iqtisodiy faoliyatini sug'urtalash.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?

2. Sug'urtaning funksiyalari nimalardan iborat?

3. Kredit risklarini minimallashtirishning qanday usullari mavjud?

4. Ixtiyoriy sug'urtalash nima?

5. Sug'urta hodisasi deganda nimani tushunasiz?
6. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalaridagi risklarni qanday pasaytirish yo'llarini bilasiz?
7. Valuta risklari nima va ularni sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?
8. Tibbiy sug'urta obykti nima?
9. Sug'urtalashning qanday turlarini bilasiz?
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash nimadan iborat?
11. Korxonalar oborot va asosiy vositalari sug'urtasi qanday amalga oshiriladi?
12. Qishloq xo'jaligida sug'urtalash deganda nimani tushunasiz?
13. Transport, fuqaro mulklarining va hayot sug'urtalarining mohiyatini tushuntirib bering.
14. Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha sug'urta nima?
15. Sug'urta faoliyatining moliyaviy asoslari nimalardan iborat?
16. Bank va tashqi iqtisodiy faoliyatini sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Sug'urta iqtisodiy tushuncha bo'lib moliya tizimi bilan bogliqdir. Moliya kabi, sug'urta pulning qiymatini o'zgarishi bilan bog'liq, chunki tegishli pul mablag'larining shakllanishi hamda ularni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta

to'vonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi⁵.

Sug'urtalashning qo'yidagi iqtisodiy belgilarini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Sug'urtalash jarayonida pulning qayta taqsimlanishi paydo bo'ladi, chunki u chiqarishdagi moddiy zararni oldini olish uchun riskini sug'urtalash zaruriyatidan kelib chiqadi.

2. Sug'urtalash jarayonida pulni kayta taksimlash munosabatlari kelib chiqadi, chunki biror bir xo'jalikda vujudga keladigan zarar oqibatini qoplash uchun boshqa zarar ko'rmagan xo'jaliklardan olingan sug'urtalash mablag'lari evaziga sug'urtalash olib boriladi.

3. Sug'urta fondida jamg'arilgan mablag'lar o'z mulkini yoki uz faoliyatini sug'urtalagan shaxsga qaytib keladi. Sug'urta to'lovlarini hajmi sug'urta tariflari asosida belgilanadi. Sug'urta to'lov tariflari esa o'z navbatida ikki qismdan tashkil etiladi: birinchi qism yuz beradigan salbiy oqibatlarni qoplash uchun muljallangan. Ikkinchi qismi esa sug'urtani tashkil etgan sug'urta tashkilotini xarajatlarini qoplashga sarflanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sug'urtalash davlat va nodavlat sug'urtalash idoralari tomonidan o'tkaziladi. Sug'urta tashkilotlari uz tarkibiga turli sug'urta jamiyatlari, kompaniyalari, xalqaro va mintaqaviy moliyaviy guruhlar hamkorligidagi qayta sug'urtalovchi kompaniyalari, davlat sug'urta kompaniyalari mustaqil faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tomondan sug'urta tashkilotlari mamlakatdagi amal qilayotgan qonunlar doirasida

⁵O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.

faoliyat yuritadi. Moliyaviy tizimning mustakil bo'lishi sifatida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qushadi. Sug'urta tashkilotlari mamlakat hududida boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, sug'urta fondlarini shakllantirish, vaqtincha bush pul mablag'larini foyda keltiradigan sohalarga sarmoya sifatida yo'naltirish, chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotish, bush pul mablag'larini foyda olish uchun kreditga berish huquqiga ega.

Sug'urtalash obyekti va predmeti bo'lib shaxsning sog'ligi, hayoti yoki mol-mulki hisoblanadi.

Sug'urta biznesida quyidagi atamalar ishlatiladi:

Sug'urta himoyasi – alohida sug'urtalash obyekti bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari.

Sug'urta miqdori – mol-mulk, sog'liq, xavf-xatarni sug'urta qiladigan pul mablag'lar miqdori. Sug'urta miqdori taraflarning kelishuvi bo'yicha aniqlanadi va sug'urtalovchining zararlarini qoplash uchun eng yuqori cho'qisini bildiradi. Uning miqdori ko'pincha sug'urtalovchining o'z mol-mulkini balans qiymati bo'yicha to'liq, tanlab yoki balans qiymatidan ortiq bo'lgan bozor narxida sug'urta qilish xohishi bilan bog'liq. Sug'urta miqdorining darajasi qancha yuqori bo'lsa, sug'urta badali shuncha katta bo'ladi.

Sug'urta mukofoti (badali) – sug'urtalovchining tarif bo'yicha umumiy sug'urta miqdori bo'yicha to'lovlari. Sug'urta mukofoti bir martalik yoki ko'p martalik (bo'lib-bo'lib to'lash) bo'lishi mumkin. Sug'urta mukofoti miqdoriga sug'urta miqdorining o'lchami, sug'urta tarifining miqdori, sug'urtalashning muddati ta'sir ko'rsatadi. Agar sug'urtalovchi navbatdagi badalni to'lamasa, sug'urtalash shartnomasi tugatilgan deb hisoblanadi va to'langan birinchi badallari qaytarilmaydi. Shartnomani muddatdan oldin bekor

qilish hollarida sug'urta badalining bir qismi qaytarilishi mumkin.

Sug'urta polisi – sug'urtalanganligini tasdiqlovchi va sug'urta holati ruy bergan paytida sug'urta tovonini olishga huquq beradigan hujjatdir. Namunaviy sug'urta polisi quyidagilarni o'z ichiga oladi: sug'urta subyekti va obyektining nomi, sug'urta holatining ro'yxati, sug'urta miqdorining o'lchami, sug'urta mukofotining miqdori, sug'urtaning muomala qilinishining boshlanishi va tugashi, sug'urta tovonini to'lash muddati va ushbu muddatni o'tkazib yuborganligi uchun sug'urta xodimining majburiyatlari.

Sug'urta maydoni – sug'urtalash mumkin bo'lgan obyektlarning maksimal soni bilan aniqlanadi.

Sug'urta portfeli – mazkur hududda sug'urtalangan obyektlarning haqiqiy soni yoki amaldagi sug'urta shartnomalarning soni bilan aniqlanadi. Sug'urta portfelinin sug'urta maydoniga bo'lgan nisbati mazkur hududda sug'urta faoliyatining samaradorlik ko'effitsienti (foizli kvota)ni aks ettiradi.

Sug'urta xavfi – sug'urta holatining oqibatida zarar yetkazish ehtimolligi bilan aniqlanadi. Alohida sug'urtalash hajmi bo'yicha matematik statistika usullari yordamida hisoblanadi. Matematik dastaklar – regressiya tahlil modellari va ehtimollik nazariyasining formulalari. Sug'urta havfi sug'urta tariflarni hisoblash uchun asos hisoblanadi.

Sug'urta holati – haqiqatda yuz bergan voqyea va hodisa bo'lib, uning natijasida sug'urta qiluvchi sug'urta qildiruvchiga tegishli sug'urta tovonini to'lashi lozim.

Sug'urta zarari (ziyoni) – sug'urtani baholashga muvofiq holda nobud bo'lgan yoki qimmatga ega bo'lmagan mol-mulkning qiymati (boy berilgan sog'liqning darajasi). Zarar yetgan miqdorini aniqlashda

2 narsa inobatga olinadi: mol-mulkning to'liq nobud bo'lishi, yo'q qilinishi va sotilishi hamda qisman shikastlanishi. Ikki holatlarda ham zararning miqdori uch tur xarajatlarni: to'g'ridan-to'g'ri, qoplanadigan va qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar – zararning asosiy qismi aynan shu tur xarajatlar zimmasiga yotadi. Ushbu xarajatlar ta'mirlash uchun zarur bo'lgan material va ehtiyot qismlar, bo'tlovchi buyumlarning qiymati hamda ta'mirlash ishlariga haq to'lashni o'z ichiga oladi.

Qoplanadigan xarajatlar – sug'urta holati sodir etilgan paytida yoki undan keyin sug'urta qiluvchi tomonidan qilinadigan xarajatlar.

Qo'shimcha xarajatlar – ishlarning muddatlilik bilan, masalan profilaktika tarzda ta'mirlash va modernizatsiya ishlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar.

To'g'ridan-to'g'ri va qoplanadigan xarajatlar shubhasiz zarar miqdoriga kiradi.

Qo'shimcha xarajatlar agar maxsus shartnoma tuzilmagan yoki shartnomada maxsus bandi bo'lmagan holda zarar miqdoriga kirmaydi.

Sug'urta to'voni – sug'urta qildiruvchi sug'urta bo'yicha ko'rgan zararning qiymatini bir qismini yoki to'liq holda sug'urta qiluvchi tomonidan to'lashi lozim bo'lgan to'lov miqdori. Ko'p hollarda sug'urta zararni to'lash proporsional majburiyatlar tizimi bo'yicha amalga oshiriladi:

$$S_i = \frac{Z_m \times \sum S_m}{S_{oq}}$$

bu yerda,

S_i – sug'urta to'voni;

S_{oq} – sug'urtalangan obyektning narxi;

$\sum S_m$ – sug'urta miqdori;

Z_m – zararning umumiy miqdori.

Ayrim hollarda sug'urta tovonining zarari to'liq qiymati bo'yicha aniqlashi ham mumkin.

Franshiza (zarar miqdoriga bog'liq) – sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararining eng kam va sug'urta qiluvchi tomonidan qoplanmaydigan qismidir. Franshiza ixtiyoriy ravishda belgilanadi va shartnomada qayd etiladi. Franshiza stavkasi: sug'urta miqdori o'lchamiga nisbatan foizda; sug'urta zarar miqdoriga nisbatan foizda aniqlanishi mumkin.

Franshiza shartli va shartsiz bo'lishi mumkin.

Shartli franshizada agar zarar miqdori franshiza miqdoridan oshmaydigan bo'lsa, sug'urta qiluvchi majburiyatdan ozod etiladi. Agar zarar miqdori franshiza bilan belgilangan stavka bilan aniqlanadigan miqdoridan oshadigan bo'lsa, sug'urta qiluvchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'liq miqdorda to'laydi.

Shartsiz franshizada sug'urta qiluvchi sug'urta qildiruvchiga u ko'rgan zarar barcha holatlar bo'yicha franshiza miqdorini ayirib tashlagan holda tovon to'laydi.

1-misol. Zararning miqdori 20 ming so'mni tashkil etgan. Obyekt 80 ming so'mga sug'urtalangan, uning qiymati 115 ming so'mni tashkil etadi. Sug'urta tovonini aniqlash talab qilinadi.

Yechish. Sug'urta tovonini miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S_r = \frac{Z_m \times \sum S_m}{S_{oq}} = \frac{20,0 \times 80,0}{115,0} = 13,9 \text{ ming so'm}$$

3-misol. Besh yil davomida sug'urta holatlari bo'yicha kuzatuv ishlari olib borilgan. Ushbu muddat ichida sug'urta kompaniya 800 mln.so'mga teng sug'urta shartnomalarni tuzgan. Ushbu muddat ichida 100 sug'urta holatlari sodir bo'lgan. Sug'urta tovonini quyidagicha to'langan:

– 20 ta holatlar bo'yicha – har bir holat bo'yicha 60 ming so'm;

– 50 holatlar bo'yicha – har bir holat bo'yicha 80 ming so'm;

– 30 holatlar bo'yicha – har bir holat bo'yicha 40 ming so'm.

Sug'urta kompaniyasining rentabelligi 30% atrofida qabul qilingan.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

– daromadning miqdori;

– sug'urta tarifining netto-stavkasi;

– tarifning netto-stavkasiga bo'lgan yuklanish;

– sug'urta tarifining stavkasi;

– sug'urta badalining miqodiri.

Yechish.

1. Besh yil ichida sug'urta tovonni miqdorini aniqlaymiz:

$$S_t = (20 \times 60) + (50 \times 80) + (30 \times 40) = 6400 \text{ ming so'm}$$

2. Daromad miqdorini aniqlaymiz:

$$D_s = \frac{S_t \times R}{100} = \frac{6400 \times 30}{100} = 1920 \text{ ming so'm}$$

3. Sug'urta tarifining netto-stavkasini aniqlaymiz:

$$S_{t_{n.}} = \frac{S_t}{\sum S_m} \times 100 = \frac{6400}{800000} \times 100 = 0,80\%$$

4. Tarifning netto-stavkasiga bo'lgan yuklanishini aniqlaymiz:

$$\Delta S_{t_{n.}} = \frac{D_s}{\sum S_m} \times 100 = \frac{1920}{800000} \times 100 = 0,24\%$$

5. Sug'urta tarifining stavkasini aniqlaymiz:

$$S_{t_s} = (S_{t_{n.}} + \Delta S_{t_{n.}}) = 0,80 + 0,24 = 1,04\%$$

6. Sug'urta mukofot (badal)ining miqodirini aniqlaymiz:

$$S_m = \frac{S_{t_s}}{100} \times \sum S_m = \frac{1,04}{100} \times 800000 = 8320 \text{ ming so'm yoki}$$

$$S_m = (S_f + D_s) = 6400 + 1920 = 8320 \text{ ming so'm}$$

4-misol. Avtomobilning narxi 19 mln. so'm. Ushbu avtomobil 16 mln. so'mga bir muddatga sug'urtalangan. Sug'urta tarifining stavkasi sug'urta miqdorining 6%ni takshil etadi. Shartnomada franshiza bandi keltirilgan, ya'ni shartsiz franshiza hamda u zarar miqdorining 12%ni tashkil etishi ko'rsatilgan. Shartnomada franshiza mavjud bo'lganligiga muvofiq tarif bo'yicha 4 % miqdorda chegirma ko'zda tutilgan. Avtomobil avariya joyidan texnik xizmat shoxobchasiga yetkazib berilgan, bunda avtomobil egasining xarajatlari 150 ming so'mni tashkil etgan. Avtomobilni ta'mirlashga ketadigan materiallarning qiymati 1,4 mln. so'm, ta'mirlash ishlari – 400 ming so'm, shikastlangan dvigatelni almashtirishga ketadigan xarajatlar - 3 mln.so'mni tashkil etgan. Ta'mirlash paytida avtomobilga yanada kuchli motor qo'yilgan. Buning uchun 4 mln.so'm sarf xarajat qilingan. Sug'urta shartnomasida qo'shmcha xarajatlar to'g'risidagi bandi ko'zda tutilmagan.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: zararining haqiqiy miqdorini, sug'urta mukofotining miqdorini, sug'urta tovonining miqdorini.

Yechish:

1. Zararining haqiqiy miqdorini aniqlaymiz:

$$Z_h = 150 + (400 + 3000 + 1400) = 4950 \text{ ming so'm}$$

2. Proporsional majburiyatlar usuli bo'yicha sug'urta tovonini aniqlaymiz:

$$S_{i,m} = Z_h \frac{\sum S_m}{N_i} = 4950 \times \left(\frac{19000}{16000} \right) = 5878,1 \text{ ming so'm}$$

3. Franshiza miqdorini aniqlaymiz:

$$F_m = Z_h \frac{F_{Sh_m}}{100} = 4950 \times \left(\frac{12}{100} \right) = 594,0 \text{ ming so'm}$$

4. Franshizani hisobga olgan holda sug'urta tovonini miqdorini aniqlaymiz:

$$F_{\text{m}} = S_{\text{m}} - F_{\text{m}} = 5878,1 - 594,0 = 5284,1 \text{ ming so'm}$$

5. Sug'urta mukofoti miqdorini aniqlaymiz:

$$SM_{\text{m}} = (1 - 0,12) \times (6/100) \times 16000 = 844,8 \text{ ming so'm.}$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Hisobot davri mobaynida hayotni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha 3,5 mln. so'm miqdorida sug'urta mukofoti tushgan. Hisobot davrining boshi holati bo'yicha zaxira 2,0 mln.so'mni tashkil etgan. Hisobot davrida sug'urta to'lovlari miqdori 800 ming so'mni tashkil etgan. Hisob-kitob paytida daromadlilik me'yori 8% deb belgilandi. Sug'urta tarif tarkibida netto-stavkaning ulushi 80%ga teng. Sug'urta zaxira miqdorini aniqlang.

2-topshiriq. Sug'urta kompaniya 4,5 mln. so'm miqdorda sug'urta mukofot olingan, komissiya tovonlar uchun 500 ming so'm mablag' to'langan. Qayta sug'urtalangan mukofoti 750 ming so'mni tashkil etgan. Sug'urta to'lovlari 1,150 mln.so'mni, sug'urta qiluvchining amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha xarajatlarni qoplash miqdori 350 ming so'mni tashkil etgan. Ishlanmagan mukofot zaxirasining o'zgarishi «+750» ming so'mga, zarar zaxirasining o'zagirshi «-200» ming so'mga teng. Investitsiyadan tushgan daromad 300 ming so'mni tashkil etgan, ishni yuritish uchun 415 ming so'm sarf qilingan. Sug'urta qiluvchi faoliyatining moliyaviy natijasini hisoblang.

3-topshiriq. Xo'jalik yurituvchi subyekt 1 yil muddatga 200 mln. so'm miqdorida o'z mol-mulkini sug'urta qilgan. Sug'urta tarifi stavkasi – sug'urta miqdorining 0,3%ga teng. Sug'urta shartnomada shartsiz franshiza (ixtiyoriy ravishda 4 %) ko'zda tutilgan. Tarif bo'yicha chegirma – 2,0 ga teng. Sug'urta

qildiruvchining haqiqiy zarari 13,5 mln.so'mni tashkil etgan. Sug'urta to'lovi va sug'urta to'voni miqdorini hisoblang.

4-topshiriq. Xo'jalik yurituvchi subyekt 1 yil muddatga 400 mln. so'm miqdorida o'z mol-mulkini sug'urta qilgan. Sug'urta tarifi stavkasi – sug'urta miqdorining 0,3%ga teng. Sug'urta shartnomada shartsiz franshiza (ixtiyoriy ravishda 1 %) ko'zda tutilgan. Tarif bo'yicha chegirma – 2,0 ga teng. Sug'urta qildiruvchining haqiqiy zarari 3,5 mln.so'mni tashkil etgan. Sug'urta to'lovi va sug'urta to'voni miqdorini hisoblang.

5-topshiriq. Xo'jalik yurituvchi subyekt 1 yil muddatga 300 mln. so'm miqdorida o'z mol-mulkini sug'urta qilgan. Sug'urta tarifi stavkasi – sug'urta miqdorining 0,3%ga, tarif bo'yicha chegirma – 10%ga teng. Bazaviy sug'urta mukofoti va sug'urta bo'yicha imtiyozlar miqdorini hisoblang.

6-topshiriq. Xo'jalik yurituvchi subyekt 1 yil muddatga 500 mln. so'm miqdorida o'z mol-mulkini sug'urta qilgan. Sug'urta tarifi stavkasi 2,0 ga teng. Bazaviy sug'urta mukofoti miqdorini hisoblang.

7-topshiriq. Quydagi ko'rsatkichlar asosida proporsional majburiyatlar tizimidan foydalangan holda NEXIA rusumidagi avtomobilni sug'urtalash uchun sug'urta tovon miqdorini hisoblang:

- avtomobilni baholash $W = 25660$ ming so'm.
- sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta miqdori $\sum S_n = 24\,500$ ming so'm.
- avariya natijasida yetkazilgan zararlarning haqiqiy miqdori $Z_{hm} = 24\,050$ ming so'm.

8-topshiriq. Mijozning bir oylik maoshi 2 mln. so'mga teng. U baxtsiz hodisadan va sog'lig'ini sug'urta qilishga xohish bildirgan. Sug'urta agenti mijozga uning

eng kamida 2 yillik daromadiga teng miqdorda sug'urta shartnomani tuzishni maslahat bergan. Sug'urta tarifi 0,67%ni tashkil etadi. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini hisoblang.

9-topshiriq. Sug'urta qildiruvchi baxtsiz hodisadan va sog'lig'ini sug'urta qilgan. Sug'urta shartnomaga muvofiq sug'urta miqdori 1,2 mln. so'mni tashkil etadi. Sug'urta shartnomaning sug'urta mukofoti miqdori 14,5 mln. so'mni tashkil etgan. Agar sug'urta qildiruvchiga nisbatan 1,15ga teng oshib boradigan koeffitsienti qo'llanilgan bo'lsa, % hisobida bazaviy sug'urta tarifi miqdorini aniqlang.

10-topshiriq. Fuqaro tomonidan baxtsiz hodisadan va sog'lig'ini sug'urta qilish bo'yicha shartnoma tuzilgan. Sug'urta shartnomaga muvofiq sug'urta miqdori 1,2 mln. so'm, sug'urta tarifi – 1,5%ni tashkil etgan. Sug'urta mukofoti ikkita bir xil miqdor to'lovlarda 3 oy muddatga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan to'lab boriladi. Ikkinchi oyda sug'urta qildiruvchi shaxs vafot etadi. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovlarini hisoblang.

11-topshiriq. Uy xo'jaligining mol-mulki 7,5 mln. so'm miqdorda proporsional majburiyatlar tizimi bo'yicha sug'urta qilingan. Mol-mulkning haqiqiy qiymati – 9 mln. so'm. Zararning miqdori qancha bo'lganda sug'urta to'voni 6,5 mln. so'mga teng bo'ladi?

12-topshiriq. Sug'urtalangan uskunaning qiymati 140 mln. so'm, sug'urta miqdori – 100 mln. so'm, sug'urta qildiruvchining zarari – 85 mln. so'mni tashkil etdi. Proporsional majburiyatlar tizimi va birinchi xavf tizimi bo'yicha sug'urta tovonini hisoblang.

10-Amaliy mashg'ulot. Pul muomalasi va uni ekonometrik modellar yordamida boshqarish

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Talabalarga pul muomalasi qonuni; pul agregatlari va ularni turlari; pul agregatlarini modellashtirish yo'llari; pul massasi va uni matematik miqdorlar yordamida aniqlash; pul massasi va pul muomalasini optimallashtirish yo'llari va usullarini ko'rib chiqib, ularni hisoblash usullarini o'rgatish.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Pul muomalasi qonunining mohiyati.
2. Pul agregatlari va ularning turlari.
3. Pul agregatlarini modellashtirish yo'llari.
4. Pul massasi.
5. Pul massasini matematik miqdorlar yordamida aniqlash.
6. Pul massasi va pul muomalasini optimallashtirish yo'llari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul muomalasi qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Pul agregatlari deganda nimani tushunasiz?.
3. Pul agregatlarining qanday turlarini bilasiz?
4. Pul agregatlarini modellashtirishning qanday yo'llari va usullarini bilasiz?
5. Pul massasi deganda nimani tushunasiz?
6. Pul massasi qanday matematik ifodalar yordamida aniqlanadi?
7. Pul massasi va pul muomalasini optimallashtirish yo'llarini izohlab bering.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Iqtisodiyotda **pul taklifi** (pul massasi) bank tizimi – markaziy va tijorat banklari tomonidan yaratiladi. Davlat pul massasining negizida markaziy bank tomonidan yaratilayotgan va boshqariladigan pul bazasi (P_b) turadi.

Markaziy bankni tark etgan pullar keyinchalik ikki yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanadi: bir qismi uy xo'jaligi va firmalar kassasida qolib ketadi, ikkinchi qismi esa qo'yilma (omonat) shaklida tijorat banklariga tushadi. Pul vositalarning naqd pul (NP_v) va omonatlar (O) o'rtasidagi taqsimoti depozitlash koeffitsienti deb yuritiladi: $\beta = \frac{NP_v}{O}$.

Tijorat banklar mablag' qo'yuvchilar bilan hisob-kitob qilish uchun pulning ma'lum bir qismini zaxirada qoldirib, kreditlar berish maqsadida depozitlar (zaxiralari - Z) dan foydalanadi. Zaxiralarning minimal me'yori markaziy bank tomonidan belgilanadi, ammo tijorat banklar ortiqcha zaxiralarni tashkil qilishi mumkin. Zaxiralarda joylashtirilgan bank qo'yilmalarning ulushi depozitlarning zaxiralash me'yorini tashkil qiladi: $\alpha = \frac{Z}{O}$.

Iqtisodiyotda pul taklifi va pul bazasi bir-biri bilan to'g'ri bog'liqlikka ega:

$$M = \frac{\beta + 1}{\beta + \alpha} P_b$$

Pul multiplikatori deb nomlanuvchi $m = \frac{(\beta + 1)}{(\alpha + \beta)}$, koeffitsienti, pul bazasining har bir so'mga o'sish pul massasining m so'mga o'sishiga to'g'ri kelishini (pul taklifini) ko'rsatadi.

Belgilangan pul bazasi sharoitida pul bazasining miqdori α i β parametrlarining ko'rsatkichlariga

bog'liq. O'z navbatida, depozitlarni zaxiralash me'yori markaziy bank tomonidan belgilanadigan majburiy zaxiralash me'yori (α_R)ning funksiyasi hisoblanadi. Aholining pul mablag'larini omonatga qo'yishga bo'lgan intilishi ham foiz stavkasining (i) pasayib ketadigan funksiyasi hisoblanadi.

Pul taklifining funksiyasi umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega: $M = M(\alpha_R, i, P_b)$.

Pulga bo'lgan talab quyidagilardan tarkib topadi: bitim uchun pulga bo'lgan talab, ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talab va mol-mulk sifatida pulga bo'lgan talab.

a) Bitim uchun pulga bo'lgan talab avvalombor, inson tomonidan iste'mol qilinadigan ne'matlarning soniga, ya'ni uning daromadiga bog'liq: $L_b = L_b(Y)$. Bitim uchun pulga bo'lgan talab quyidagi funksiyada o'z ifodasini topadi:

$$L_b = L_y \times Y$$

bu yerda,

L_y - bitim uchun pulga bo'lgan eng yuqori;

L_y - miqdori pulning muomala qilish

tezligiga teskari proporsional: $L_y = \frac{1}{M}$.

Naqd pulni saqlash natijasida individda ulardan foydalanishdan daromad olishning muqobil variantlari bo'lmaganligi sababli bitim uchun pulga bo'lgan talab foiz stavkasiga bog'liq bo'lishi mumkin: $L_b = L_b(Y, i)$.

b) Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talab individ tomonidan kelgusida xarajat qilinishining noaniqligi tufayli vujudga keladi va bitim uchun pulga bo'lgan talabi kabi omillarga bog'liq: $L_e = L_e(Y, i)$.

v) Pullardan nafaqat ne'matlarni sotib olish uchun, balki mol-mulkni (qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar

bilan bir qatorda) saqlash uchun foydalanilishi mumkin. Pul ko'inishida mol-mulkni saqlab turib, individ daromad olishning muqobil variantini yo'qotadi, shu bois mol-mulk ko'inishida pulga bo'lgan talab umumiy holda foiz stavkasidan kelib chiqadigan funksiya hisoblanadi: $L_{mm} = L(i)$. Bunda shunday i_{max} ko'rsatkich borki, unda boshqa aktivlar shunchalik jozibador bo'ladiki, hech kim mol-mulk tarkibida pullarni saqlashni xohlamaydi ($L_{mm} = 0$). Va aksinacha, i_{min} ko'rsatkichi borki, boshqa aktivlarda mol-mulkni saqlashdagi noqulayliklar ulardan olinadigan daromad bilan qoplanadi va iqtisodiy subyektlar barcha o'ziga tegishli mol-mulkni pul ko'inishida saqlashga intiladi. Mol-mulk ko'inishida pulga bo'lgan talabning umumiy holda joriy foiz stavkasidan kelib chiqadigan chiziqli funksiya ko'inishida ifodalash mumkin:

$$\frac{(i)}{L_{mm}} = L_i \times (i_{max} - i)$$

bu yerda,

$L_i = \frac{dL_{mm}}{di}$ - bu i_{max} va i_{min} o'rtasidagi oralig'ida foiz stavkasi 1 bandga o'zgarishida mol-mulk ko'inishida pulga bo'lgan talab qay tarzda o'zgarishini ko'rsatuvchi mol-mulk sifatida likvidlilikni afzal ko'rishga moyilligining eng yuqori chegarasi.

Pul bozorini o'rganishda haqiqiy va nominal ko'rsatkichlar, ya'ni haqiqiy va nominal pul talabi va taklifi o'rtasidagi farqlarini bilish lozim:

P_m - nominal pul taklifi, $\frac{P_m}{P_h}$ - haqiqiy pul taklifi, L - nominal pul talabi, l - haqiqiy pul talabi, bitim uchun va ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabni ifodalash uchun quyidagi ifoda to'g'ri keladi: $L = P_h \times l$.

Pul bozorida bank tizimi bilan yaratilgan barcha pullar kassa qoldiqlar ko'inishida turli iqtisodiy subyektlar tomonidan ixtiyoriy ravishda ushlab turgan holatda muvozanatga erishiladi. Pul bozorida belgilangan narxlar darajasi sharoitida muvozanatga erishish shartlari quyidagi tenglik bilan o'z ifodasini topadi:

a) $M = M(\alpha_R, i, P_b) = L(Y, i)$ eku $M = L_b + L_c + L_{mm}$ - nominal ko'inishda;

b) $\frac{P_m}{P_h}(\alpha_R, i, P_b) = l(Y, i)$ eku $\frac{P_m}{P_h} = 1_h + 1_c + 1_{mm}$ - haqiqiy ko'inishda.

Belgilangan nominal pul miqdori va narxlar darajasi sharoitida pul bozorida muvozanatni ta'minlab beradigan barcha kombinasiyalarning yig'indisi (Y, i) «LM-egri chiziq»ni hosil qiladi. Uning ikki o'zgaruvchi (Y va i)larning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tenglamasi pul bozorida muvozanatga erishish shartidan keltirib chiqariladi.

1-misol. Mamlakatning pul bazasi 5 000 mln. so'mga, muomalada bo'lgan pular miqdori 10 000 mln. so'mga, majburiy zaxiralar me'yori 10%ga teng, aholida turgan naqd pullarning aholi qo'yilmalarining hajmiga nisbati 40%ni tashkil etadi. Tijorat banklarning ortiqcha zaxira me'yorini aniqlang. Agar banklarda ortiqcha zaxiralar yo'q bo'lganda pullar miqdori qanchaga oshgan bo'lar edi?

Yechish.

1. Mamlakatning pul bazasi va pul massasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M = \frac{\beta + 1}{\beta + \alpha} P_b$$

bu yerda,

M - pul massasi;

P_b – pul bazasi;

α – depozitlarni zaxiralash me'yori;

β – aholida turgan naqd pullarning aholi qo'yilmalarining hajmiga nisbati.

Misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni formulaga solgan holda quyidagini hosil qilamiz: $10000 = \frac{0,4+1}{0,4+\alpha} \times 5000$, bu yerda $\alpha = 0,3$.

α depozitlarni zaxiralash me'yori majburiy zaxiralash me'yori va ortiqcha zaxiralar me'yoridan tarkib topadi. Majburiy zaxiralar me'yori $\alpha_R = 0,1$ demak, ortiqcha zaxiralar $\alpha_o = 0,3 - 0,1 = 0,2$. Shunday qilib, banklar majburiy me'yordan ortiq ravishda yana 20% depozitlarni zaxiralash mumkin.

2. Agar banklarda ortiqcha zaxiralar yo'q bo'lganda, umumiy zaxiralash me'yori majburiy zaxiralar me'yoriga teng bo'ladi:

$$\alpha = \alpha_R + \alpha_o = 0,1 - 0,0 = 0,1.$$

Shunda pul massasi $M = \frac{0,4+1}{0,4+0,1} \times 5000 = 14000$ ming so'mni tashkil etgan, ya'ni 4 000 mln. so'mga ko'paygan bo'lar edi.

2-misol. 1 000 mln. so'mga teng haqiqiy milliy daromadi sharoitida 900 mln. so'm muomalaga chiqarilgan, pul bozorida $i = 8\%$ foiz stavkasida muvozanat o'rnatilgan.

Nominal ko'rinishda bitim uchun pulga bo'lgan talabning funksiyasi: $L_b = 0,25Y$ ga teng.

Nominal ko'rinishda mol-mulk sifatida pulga bo'lgan talabning funksiyasi: $L_{mm} = \frac{4800}{i}$ ga teng. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabini aniqlang.

Yechish. Pul bozorida muvozanatning shartini nominal ko'rinishda yozib olamiz: $M = L_b + L_e + L_{mm}$ va

misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni ushbu tenglamaga solib qo'yib: $M = 900$, $L_b = 0,25Y$, $L_{mm} = \frac{4800}{i}$ quyidagini hosil qilamiz: $900 = 0,25Y + L_e + \frac{4800}{i}$.

Misoldan shu narsa ma'lumki, pul bozorida milliy daromadning $Y = 1\,000$ mln. so'm va foiz stavkasi $i = 8\%$ ga teng bo'lgan holatda muvozanatga erishilgan. Shunda muvozanat shartlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$900 = 0,25 \times 1000 + L_e + \frac{4800}{8}.$$

Bundan ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabni hosil qilamiz: $L_e = 50$ mln.so'm.

3-misol. Muomalada bo'lgan pul miqdori 24 mln. so'mga teng. Pulga bo'lgan haqiqiy talab: $I = 1,5Y - 100i$ ga teng. Uy xo'jaliklari o'zining joriy daromadidan 80%ni iste'mol qiladi: $NP_v = 0,8Y$, $I = 4 - 40i$.

Umumiy talab funksiyaning tenglamasini tuzing. Narxlar darajasi 1 dan 2 gacha ko'payganda umumiy talabning hajmi qay tarzda o'zgaradi?

Yechish.

1. Umumiy talab va narxlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni topish uchun pul va ne'matlar bozorida o'zaro muvozanat shartlarni ifodalaymiz

Iqtisodiyotda davlatning ishtirokisiz **ne'matlar bozoridagi** muvozanatning shartlari: $Y = NP_v + I$. Misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni ushbu tenglamaga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$Y = 0,8Y + 4 - 40i \quad \text{yoki} \quad 0,2Y = 4 - 40i$$

Pul bozoridagi muvozanatning shartlari: $\frac{P_m}{P_h} = l_b + l_e + l_{mm}$.

Misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni ushbu tenglamaga solib, quyidagini hosil qilamiz: $\frac{24}{P_h} = 1,5Y - 100i$.

Shunda ne'matlar va pul bozoridagi o'zaro muvozanatning shartlari quyidagi tenglamalar tizimi bilan ifodalangan:

$$\begin{cases} 0,2Y = 4 - 40i & - \text{ne'matlar bozori;} \\ \frac{24}{P_h} = 1,5Y - 100i & - \text{pul bozori.} \end{cases}$$

Birinchi tenglamadan i ni chiqaramiz: $i = 0,1 - 0,005Y$ va uni ikkinchi tenglamaga qo'yamiz: $\frac{24}{P_h} = 1,5Y - 100 \times (0,1 - 0,005Y)$.

Lozim bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirib, umumiy talab va narxlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflovchi ifodani hosil qilamiz: $Y = \frac{12}{P_h} + 5$. Ana shu tenglama umumiy talab funksiya tenglamasi hisoblanadi.

2. Umumiy talab funksiya tenglamasidan foydalangan holda turli narxlar darajalarda umumiy talab hajmini topamiz:

Agar $P_h = 1$ ga teng bo'lganda: $Y = \frac{12}{1} + 5 = 17$;

Agar $P_h = 2$ ga teng bo'lganda: $Y = \frac{12}{2} + 5 = 11$. Shunday qilib, narxlar darajasini 1 dan 2 gacha ko'payganda umumiy talabning hajmi 6 mln. so'mga kamayadi.

4-misol. Ne'matlar va pul bozorida iqtisodiy subyektlarning harakatlarini aniqlovchi funksiyalar quyidagilar: $NP_v = 0,8Y + 50$, $I = 200 - 20i$, $L_h = 0,4Y$, $L_e = 0,0$, $L_{mm} = 500 - 50i$. Muomalaga 400 mln.so'm chiqarilgan. Daromad va foiz stavkasi muvozanat miqdorini aniqlang. Ne'matlar va pul bozorida o'zaro muvozanatga erishishda muomalada bo'lgan pullar bitim uchun pullar va mol-mulk ko'rinishda pullar o'rtasida qay tarzda taqismlanadi? Tadbirkorlar va uy xo'jaliklarining

harakatlari o'zgarmagan holda bozorda 70 mln.so'm miqdorda ne'matlar talabini berayotgan davlatning paydo bo'lishi investitsiya uchun ketadigan xususiy xarajatlar qay tarzda o'zgaradi?

Yechish:

1. Ne'matlar va pul bozorida o'zaro muvozanat shartini ifodalaymiz. Iqtisodiyotda davlatning ishtirokisiz **ne'matlar bozoridagi** muvozanatning shartlari: $Y = NP_v + I$. Misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni ushbu tenglamaga solib, quyidagini hosil qilamiz:

$$Y = 0,6Y + 50 + 200 - 20i \quad \text{yoki} \quad 0,4Y = 250 - 20i$$

Pul bozoridagi muvozanatning shartlari: $M = L_b + L_r + L_{mm}$. Misolda keltirilgan ko'rsatkichlarni ushbu tenglamaga solib, quyidagini hosil qilamiz: $400 = 0,4Y + 500 - 50i$.

Shunda ne'matlar va pul bozoridagi o'zaro muvozanatning shartlari quyidagi tenglamalar tizimi bilan ifodalangan:

$$\begin{cases} 0,4Y = 250 - 20i & - \text{ne'matlar bozori;} \\ 400 = 0,4Y + 500 - 50i & - \text{pul bozori.} \end{cases}$$

Ushbu tizimni yechib, daromad va foiz stavkasining muvozanat miqdorini hosil qilamiz: $Y = 375, i = 5$.

2. Daromad va foiz stavkasining muvozanat miqdorini aniqlab, bitim uchun va mol-mulk ko'rinishida talab hajmini aniqlash mumkin bo'ladi:

$$L_b = 0,4Y = 0,4 \times 375 = 150;$$

$$L_{mm} = 500 - 50i = 500 - 50 \times 5 = 250.$$

3. Bozorda davlatning paydo bo'lishi ne'matlar bozorida muvozanat holati o'zgaradi, demak o'zaro muvozanat ham o'zgaradi. Ne'matlar bozorida muvozanatning yangi sharti quyidagicha ifodalanadi: $Y = NP_v + I + G$ misoldagi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda bu ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y = 0,6Y + 50 + 200 - 20i + 70 \quad \text{yoki} \quad 0,4Y = 320 - 20i.$$

Daromad va foiz stavkalarining muvozanat miqdorini quyidagi tenglamalar tizimi yordamida aniqlaymiz:

$$\begin{cases} 0,4Y = 320 - 20i; \\ 400 = 0,4Y + 500 - 50i. \end{cases} \text{ Bu holda } Y = 500, i = 6.$$

Endi iqtisodiyotda davlatning paydo bo'lishidan oldin va davlatning paydo bo'lishidan keyin investitsiya uchun xususiy xarajatlarni topamiz:

$I = 200 - 20i = 200 - 20 \times 5 = 100$ – iqtisodiyotda davlatning ishtirokisiz.

$I = 200 - 20i = 200 - 20 \times 6 = 80$ – iqtisodiyotda davlatning ishtiroki bilan.

$\Delta I = 100 - 80 = 20$. Ya'ni, davlat tomonidan talabni 70 mln. so'mga oshirilishi 20 mln.so'm miqdordagi xususiy investitsiyalarni «chetlab qo'yadi».

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Muomalaga 250 mln.so'm chiqarilgan, ularning har biri bir yilda 10 ta aylanmani bajaradi ($M=100$). Haqiqiy ko'rinishda mol-mulk sifatida likvidlikni afzal ko'rish moyilligining chegarasi: $L_i = 8$ mln.so'mga teng. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabi nolga teng. Agar $i_{max} = 25\%$ ga teng bo'lsa mol-mulk ko'rinishda pulga bo'lgan talabi nolga teng bo'ladi. Joriy foiz stavkasi 12% ga teng. Milliy daromadning qanaqa miqdorda narxlar darajasi 1 ga teng bo'ladi?

2-topshiriq. Muomalaga 420 mln.so'm chiqarilgan, ularning har biri bir yilda 11 ta aylanmani bajaradi ($M=11$). Haqiqiy ko'rinishda mol-mulk sifatida likvidlikni afzal ko'rish moyilligining chegarasi: $L_i = 7$ mln.so'mga teng. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabi nolga teng. Agar $i_{max} = 22\%$ ga teng bo'lsa mol-

mulk ko'rinishida pulga bo'lgan talabi nolga teng bo'ladi. Joriy foiz stavkasi 10%ga teng. Bitim uchun va mol-mulk ko'rinishida pulga bo'lgan talabining nominal hajmlari qanaqa bo'ladi?

3-topshiriq. Pul taklifi quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi: $M = 150 + 5i$. Pul muomalasining tezligi davr mobaynida 25 aylanmaga teng. Davr mobaynida haqiqiy daromadi— 2 900 mln.so'mga teng. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabning haqiqiy ifodasi quyidagicha: $L_e = 0.01Y$. Mol-mulk ko'rinishda pulga bo'lgan talabning haqiqiy ifodasi quyidagicha: $L_{mm} = 47 - 2i$. Narxlar darajasi $P_n = 1$. Muvozanat foiz stavkasini aniqlang.

4-topshiriq. Muomalaga 81 mln.so'm chiqarilgan, ularning muomala qilish tezligi davr mobaynida 10 ta aylanmaga teng ($M = 10$). Mol-mulk ko'rinishida pulga bo'lgan haqiqiy talabi: $L_{mm} = \frac{96}{(i-1)}$. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabi nolga teng. Jamg'armalar hajmi haqiqiy daromadning 40%ga teng: $J = 0.4Y$. Xususiy investitsiyalar: $I = 20 + \frac{12}{i}$. Agar samarli talab 60 ga teng bo'lsa narxlarning qanday darajasi ne'matlar va pul bozorida o'zaro muvozanatni ta'minlaydi?

5-topshiriq. Mamlakatning pul bazasi 2 500 mln.so'm, muomalada bo'lgan pullar 800 mln.so'm, majburiy zahiralar me'yori 8%ga, aholida turgan naqd pullarning aholi qo'yilmalarining hajmiga nisbati 35%ni tashkil etadi. Tijorat banklarning ortiqcha zaxiralar me'yorini aniqlang.

6-topshiriq. 920 mln. so'mga teng haqiqiy milliy daromadi sharoitida 845 mln. so'm muomalaga chiqarilgan, pul bozorida $i = 6,5$ foiz stavkasida muvozanat o'rnatilgan. Nominal ko'rinishda bitim uchun pulga bo'lgan talabning funksiyasi: $L_b = 0.22Y$ ga teng.

Nominal ko'rinishda mol-mulk sifatida pulga bo'lgan talabning funksiyasi: $L_{mm} = \frac{3250}{i}$ ga teng. Ehtiyotkorlik yuzasidan pulga bo'lgan talabini aniqlang.

7-topshiriq. Muomalada bo'lgan pul miqdori 18 mln. so'mga teng. Pulga bo'lgan haqiqiy talabi: $L = 1,2Y - 100i$ ga teng. Uy xo'jaliklari o'zining joriy daromadidan 65%ni iste'mol qiladi: $NP_v = 0,6Y$, $I = 3 - 30i$. Umumiy talab funksiyaning tenglamasini tuzing.

8-topshiriq. Muomalada bo'lgan pul miqdori 30 mln. so'mga teng. Pulga bo'lgan haqiqiy talabi: $L = 1,7Y - 100i$ ga teng. Uy xo'jaliklari o'zining joriy daromadidan 71%ni iste'mol qiladi: $NP_v = 0,9Y$, $I = 5 - 50i$. Narxlar darajasini 1 dan 2 gacha ko'payganda umumiy talabning hajmi qay tarzda o'zgaradi?

9-topshiriq. Ne'matlar va pul bozorida iqtisodiy subyektlarning harakatlarini aniqlovchi funksiyalar quyidagilar: $NP_v = 0,5Y + 40$, $I = 150 - 15i$, $L_b = 0,2Y$, $L_e = 0,0$, $L_{mm} = 450 - 45i$. Muomalaga 350 mln.so'm chiqarilgan. Ne'matlar va pul bozorida o'zaro muvozanatga erishishda muomalada bo'lgan pullar bitim uchun pullar va mol-mulk ko'rinishida pullar o'rtasida qay tarzda taqismlanadi?

10-topshiriq. Ne'matlar va pul bozorida iqtisodiy subyektlarning harakatlarini aniqlovchi funksiyalar quyidagilar: $NP_v = 0,4Y + 30$, $I = 125 - 12i$, $L_b = 0,15Y$, $L_e = 0,0$, $L_{mm} = 325 - 25i$. Muomalaga 350 mln.so'm chiqarilgan. Ne'matlar va pul bozorida o'zaro muvozanatga erishishda muomalada bo'lgan pullar bitim uchun pullar va mol-mulk ko'rinishida pullar o'rtasida qay tarzda taqismlanadi?

11-topshiriq. Ne'matlar va pul bozorida iqtisodiy subyektlarning harakatlarini aniqlovchi funksiyalar quyidagilar: $NP_v = 0,2Y + 20$, $I = 250 - 25i$, $L_b = 0,3Y$, $L_e = 0,0$,

$L_{mm} = 350 - 35i$. Muomalaga 450 mln.so'm chiqarilgan. Tadbirkorlar va uy xo'jaliklarining harakatlari o'zgarmagan holda bozorda 70 mln.so'm miqdorda ne'matlar talabini berayotgan davlatning paydo bo'lishi investitsiya uchun ketadigan xususiy xarajatlar qay tarzda o'zgaradi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. К а р и м о в И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. –Т.: Ўзбекистон, 2005.
2. К а р и м о в I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –Т.:О‘zbekiston, 2010.
3. К а р и м о в I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. –Т.:О‘zbekiston, 2013.
4. А б д у л л а е в а Ш.З. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.
5. А к р а м о в Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. –Т.: Молия, 2003.
6. А л и м о в I.I., Х у с а н б о у е в А.Г‘., I к р а м о в А.И. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari. O‘quv qo‘llanma. –Т.: TDIU, 2010.
7. Б о б а к у л о в Т.И. Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар. –Т.: Fan va texnologiya, 2007.
8. Б у р х а н о в А.У. Саноат корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш стратегияси. Монография. –Т.: Фан, 2009.
9. Б у т и к о в И.Л. Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. –Т.: KONSAUDITINFORM NASHR, 2008.
10. Д о н П а т и н к и н. Денги, процент и цены. –М.: Экономика, 2004.
11. К а л п а к о в а Г.М. Финансы. Денежное обращение. Кредит. Учебник. –М.: Финансы и статистика, 2011.
12. R a s h i d o v O.YU. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –Т.: Cho‘lpon, 2011.

13. М а л и к о в Т.С., Х а й д а р о в Н.Х. Бюджет даромадлари ва харажатлари. Ўқув қўлланма. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.

14. М а л и к о в Т.С., Ж а л и л о в П.Т. Бюджет-солик сиёсати. Монография. –Т.: Akademnashr, 2011.

15. М а л и к о в Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

16. М о л я к о в Д. Теория финансов предприятий. –М.: Финансы и статистика, 2004.

17. М о и с е е в С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М., 2003.

18. V a h o b o v A.V., М а л и к о в Т.С. Moliya. Darslik. –Т.: NOSHIR, 2012.

19. К о в а л ё в а А. Финансы и кредит. –М.: Финансы и статистика, 2006.

20. К о т о в В.А. Организация рынка ценных бумаг. –Т.: Молия, 2007.

21. Л а в р у ш и н О.И. и др. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010.

22. М е р к у л о в а И.В., Л у к ъ я н о в а А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. –М.: КНОРУС, 2010.

23. Ж у м а е в Н., Б у р х а н о в У. Молиянинг долзарб муаммолари. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.

24. П о л я к Г.Б. и др. Финансы. Денежное обращение. Кредит. –М.: ЮНИТИ, 2004.

25. R a s h i d o v O.YU. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. – Т.: Cho'pon, 2011.

26. С а в и ц к а я Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск, 2007.

27. С е н ч а г о в В.К. др. Финансы, денежное обращение и кредит. –М.: Проспект, 2004.

28. Х а й д а р о в Н. Молия. I- қисм. –Т.: Академия, 2001.

29. Ш о д и е в Т.Ш. ва бошқалар. Иқтисодий-математик усуллар ва моделлар. –Т., 2010.

30. Х а с а н о в Н., Н а ж б и д д и н о в С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш: муаммолар ва уларни ҳал қилиш. -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-Amaliy mashg'ulot. Pul nazariyasi.....	5
2-Amaliy mashg'ulot. Kredit nazariyasi.....	15
3-Amaliy mashg'ulot. Moliya va moliya tizimi ...	29
4-Amaliy mashg'ulot. Korxonalar moliyasi.....	42
5-Amaliy mashg'ulot. Banklar va bank operatsiyalari.....	57
6-Amaliy mashg'ulot. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va shakllari.....	72
7-Amaliy mashg'ulot. Inflatsiya	81
8-Amaliy mashg'ulot. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari va valuta tizimi.....	89
9-Amaliy mashg'ulot. Sug'urtalash.....	98
10-Amaliy mashg'ulot. Pul muomalasi va uni ekonometrik modellar yordamida boshqarish....	111
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	124

Aktam Burxanov
Fozil Soatov

«PUL, KREDIT VA BANKLAR»
fanidan amaliy mashg'ulotlar

O'QUV - USLUBIY QO'LLANMA

Muharrir	K. Sidiqova
Texnik muharrir	A. Moydinov

Bosishga ruhsat etildi 08.05.2014 y. Bichimi 60x84
1/16.

Shartli bosma tabog'i 8. Nusxasi 50 dona.
Buyurtma № 282.

ToshDTU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., talabalar ko'chasi 54. Tel: 246-63-84.